In Uzbekistan, this indicator is defined as 0.27÷5.22%. As a result of the large-scale research carried out on highways in 1991, the employees of the former All-Union Research Center for Traffic Safety stated that road conditions are the direct or indirect causes of 40÷45% of accidents [2], but according to state statistics, the former indicators are recorded at a low level. For the highways of Uzbekistan, it is 0÷01%.

The methods of determining the level of danger of road sections, considered in the previous sections, are mainly based on the analysis of accidents, and in one case or another, as a result of a detailed study of the incidents that occurred on different parts of the road, certain conclusions were reached. Below, we will consider

determining the level of danger of road sections, depending on the situation before the occurrence of an accident. Among the participants of the movement, it is understood that it is a conflict situation that they continue their actions in a dangerous situation where an accident occurs in certain road conditions [2]. The conflict situation method is mostly used to determine the degree of danger of level crossings, curved sections of the road in plan and longitudinal section, as well as places of sudden braking. For this purpose, a simulation model of movement is created by observing the change in the traffic pattern on a real road section or using ehm.

Tracking is done during the hour with the highest traffic volume using the following methods:

- A car moving along the flow of traffic passes through the section of the highway that is being tested in the laboratory many times (6-10 times). In this case, the observers take into account the places of the driver's actions to apply sharp brakes, change the direction of movement and prevent other accidents;

- in places where accidents are likely to occur (near level crossings, railway crossings, curves with a small radius in the plan, etc.), measuring sudden changes in traffic with the help of observers at posts located along the road;

- Using sensors installed in a moving laboratory vehicle, recording changes in road speed and directions in "samopitses".

Using the conflict situation method, to determine the level of danger of a road section, it is necessary to draw a graph of the change of speed and direction on all road sections with the help of a car laboratory. In this method, determining the level of dangerousness of the road is measured by the value of longitudinal and transverse negative acceleration of the car in one or another position. The conflict situation is divided into three types according to its level of danger: light, medium and critical. light - when the driver approaches a conflicting point from a long distance, it is possible to understand the dangerous situation and assess the direction of movement of other traffic participants in time. average - it is characterized by the occurrence of an unexpected danger or due to an incorrect assessment of the traffic conditions at the

beginning. critical - the driver can avoid an accident by moving at a high speed on a short section of the road.

LITERATURE

1. I.S. Sodikov/ *Transport and operational indicators of highways / Textbook / T.-TAYLKEI. - 2019. 216 p.*

2. Azizov Q.Kh. *Ensuring road safety. Instruction manual - 94 pages. T.: -2019*

3. Nazarov A.A. *Principles of education that develop an innovative approach to engineering professional activities / International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) / <https://www.iiste.org/journals>.*

4. A. Nazarov and others. *Methods for Conducting a Course Project on Machine Parts / TEST IN Gineering management. / https://ejmcm.com/article_3873.html May – June 2020. ISSN: 0193-4120 Page No. 26595 – 26598.*

5. Nazarov A. A. *Principles of education that develop an innovative approach to engineering professional activities. / European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.8No.8,2020 ISSN 2056-5852. / <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/07/Full-Paper-PRINCIPLES-OF-EDUCATION-THAT-DEVELOP-AN-INNOVATIVE-APPROACH-TO-ENGINEERING-PROFESSIONAL.pdf>.*

6. Nazarov A. A. *Completion of the course project on the subject "Machine details". / Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences / <https://cyberleninka.ru/article/n/completion-of-the-course-project-on-the-subject-machine-details>.*

KOORDINATALAR SISTEMALARIGA OID MASALA

A.A.Zaitov

Toshkent arxitektura va qurilish instituti professor

D.A.Bozorova

Buxoro davlat universiteti magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

*Yon atrofimizda joylashgan ob'ektlarning, sodir bo'layotgan voqea, hodisalarning bizga nisbatan joylashuvi, vaziyati, fazoviy o'rni haqidagi ma'lumotlar ko'plab talab etiladi. Bu talablarni qondirish maqsadida o'rganilayotgan sirt yoki fazoga **koordinatalar sistemalari** kiritiladi. Dastlab **qutb koordinatalar va sferik koordinatalar sistemalari** keng qo'llanilgan.*

***Kalit so'zlar:** Koordinatalar sistemalari, qutb koordinatalar, sferik koordinatalar sistemalari*

KIRISH

Koordinatalar sistemalari

Qutb koordinatalar sistemasida tekislikdagi har bir nuqta ikkita son – qutb radius va qutb burchak – orqali aniqlanadi. Burchak va radius tushunchalari eraamizdan avvalgi birinchi ming yillikdayoq ma'lum bo'lgan.

Keyinchalik to'g'ri burchakli **koordinatalar sistemasi** qo'llanila boshlangan. To'g'ri burchakli koordinatalar sistemasini Dekart koordinatalar sistemasi ham deyishadi (Rene Dekart – [fransuzcha](#) *René Descartes*, lotincha *Renatus Cartesius* – fransuz matematigi (31.03.1596 – 11.02.1650). U 1637 yilda “Metod haqida mulohaza” asarida koordinatalar sistemasini kiritadi).

Koordinatalar sistemasi kiritilgach, jismlarni tavsiflashning ajoyib usuli – ularni tenglamalar yoki tengsizliklar orqali ifodalash usuli paydo bo‘ldi.

Dekart koordinatalar sistemasi

Biror to‘g‘ri chiziqda **hisob boshi** (kuzatuv nuqtasi, O nuqta) **ni** tanlaymiz. O nuqtadan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab ikki tomonga yo‘nalish mumkin. Bu yo‘nalishlardan bittasini musbat yo‘nalish deb olish mumkin. Biz quyidagilarga kelishib olamiz. Agarda hisob boshi tayinlangan to‘g‘ri chiziq:

(x) kuzatuvchining qo‘llari yoyilgan holatiga parallel bo‘lsa, undagi (kuzatuvchiga nisbatan) chapdan o‘ngga yo‘nalishni;

(y) kuzatuvchining nigohiga parallel bo‘lsa, undagi (kuzatuvchiga nisbatan) orqadan oldga yo‘nalishni;

(z) kuzatuvchining tik holatiga parallel bo‘lsa, undagi pastdan tepaga yo‘nalishni **musbat yo‘nalish** deb qabul qilamiz.

Hisob boshi, musbat yo‘nalishi va birlik kesmasi tayinlangan to‘g‘ri chiziq **koordinata o‘qi** deb yuritiladi. Tayinlangan hisob boshi **koordinata boshi** deyiladi. Koordinata o‘qlari odatda x , y , z yoki Ox , Oy , Oz kabi belgilanadi.


Tekislikda koordinatalar sistemasi quyidagicha kiritiladi.

Ikkita Ox , Oy koordinata o‘qlari shunday kesishsinki,

(P1) ular perpendikulyar bo‘lsin;

(P2) ularning koordinata boshlari ustma-ust tushsin;

(P3) Ox va Oy o‘qlarning musbat yo‘nalishlari ustma-ust tushguncha Ox o‘qini umumiy koordinata boshiga nisbatan eng qisqa burish soat strelkasi harakatiga qarama-qarshi bo‘lsin.



Yo‘nalish kelishib olingach, to‘g‘ri chiziqda birlik kesma ko‘rsatiladi.

Koordinata boshi, musbat yo‘nalishlari va birlik kesmalari tayinlangan, (P1), (P2), (P3) shartlarni qanoatlantiruvchi tekislik **to‘g‘ri burchakli koordinatalar tekisligi** deyiladi va odatda Oxy kabi belgilanadi.

Endi fazoda koordinatalar sistemasini kiritamiz. Buning uchun o‘ng qo‘l qoidasini bilish talab etiladi. Kafti gorizontal tutilgan o‘ng qo‘lning bosh barmog‘ini gorizontal kerilgan holatda, ko‘rsatkich barmog‘ini gorizontal yoyilgan holatda, o‘rta barmoq kaftga perpendikulyar tutilgan bo‘lsin. Musbat yo‘nalishlarni bosh barmoq, ko‘rsatkich barmoq va o‘rta barmoqning shu holati bo‘yicha aniqlash **o‘ng qo‘l qoidasi** deyiladi.

Uchta Ox , Oy va Oz koordinata o‘qlari shunday kesishsinki,




(S1) ular o‘zaro perpendikulyar bo‘lsin;

(S2) ularning koordinata boshlari ustma-ust tushsin;

(S3) Ox , Oy va Oz o‘qlarning musbat yo‘nalishlari o‘ng qo‘l qoidasi asosida belgilansin. Bunda Ox o‘qning musbat yo‘nalishi bosh barmoq yo‘nalishi, Oy o‘qning musbat yo‘nalishi ko‘rsatkich barmoq yo‘nalishi va Oz o‘qning musbat yo‘nalishi o‘rta barmoq yo‘nalishi bilan bir xil bo‘lishi talab etiladi.

Koordinata boshi, musbat yo‘nalishlari va birlik kesmalari tayinlangan, (S1), (S2), (S3) shartlarni qanoatlantiruvchi fazo **to‘g‘ri burchakli koordinatalar fazosi** deyiladi va odatda $Oxyz$ kabi belgilanadi.

(P3) shart tekislikda, (S3) shart fazoda **orientatsiyani** aniqlaydi deyishadi.

 <p>Son o‘qi (hisob boshi, musbat yo‘nalish va birlik kesma ko‘rsatilgan to‘g‘ri chiziq)</p>	 <p>Tekislikdagi Dekart koordinatalar sistemasi</p>	 <p>Fazodagi Dekart koordinatalar sistemasi</p>
---	--	---

Demak, **koordinata o‘qi** (yoki **son o‘qi**) deganda koordinata boshi, birlik kesmasi va musbat yo‘nalishi aniqlangan to‘g‘ri chiziq tushuniladi.

Koordinata boshi, koordinata o‘qlari va orientatsiyasi yuqoridagi usulda aniqlangan koordinatalar sistemasi mos ravishda tekislikdagi yoki fazodagi **Dekart koordinatalar sistemasi** deyiladi.

1. Son o‘qidagi (umuman olganda har qanday to‘g‘ri chiziqdagi) har bir nuqtasi bitta va faqat bitta haqiqiy son bilan ifodalanadi. Bu son shu nuqtaning **koordinatasi** deyiladi.

Aytaylik, x son o‘qida A nuqta berilgan bo‘lsin. A nuqtaga mos sonni x_A orqali belgilaylik. U holda x_A son A nuqtaning koordinatasi bo‘ladi. Bu holat $A(x_A)$ kabi belgilanadi.

Son o‘qidagi $A(x_A)$ va $B(x_B)$ nuqtalar orasidagi masofa

$$\rho(A, B) = |x_B - x_A|$$

kabi aniqlanadi. Bu masofa AB orqali ham ifodalanadi: $AB = |x_B - x_A|$.

2. Oxy Dekart koordinatalari sistemasi kiritilgan tekislik **koordinatalar tekisligi** deb ham yuritiladi. Oxy koordinatalar tekisligidagi har bir nuqta ikkita haqiqiy sonlarning tartiblangan jufti orqali yagona usulda (yoki, boshqacha aytganda, o‘zaro bir qiymatli) ifodalanadi. Bu sonlarning tartiblangan jufti mazkur nuqtaning **koordinatalari** deyiladi.

Oxy koordinatalar tekisligidagi A nuqta haqiqiy sonlarning tartiblangan (x_A, y_A) jufti orqali ifodalangan bo‘lsin. Bu holda (x_A, y_A) juftlik A nuqtaning koordinatalari bo‘ladi va $A(x_A, y_A)$ kabi belgilanadi. x_A son A nuqtaning **absissasi**, y_A son esa A nuqtaning **ordinatasi** deyiladi.

Oxy koordinatalar tekisligida $A(x_A, y_A)$ va $B(x_B, y_B)$ nuqtalar orasidagi masofa

$$AB = \rho(A, B) = \sqrt{(x_B - x_A)^2 + (y_B - y_A)^2} \quad (1.1)$$

formula orqali topiladi.

3. $Oxyz$ Dekart koordinatalari sistemasi kiritilgan fazodagi har bir nuqta uchta haqiqiy sonlarning tartiblangan uchligi orqali yagona usulda ifodalanadi. Bu sonlar uchligi mazkur nuqtaning **koordinatalari** deyiladi.

$Oxyz$ koordinatalar tekisligidagi A nuqta haqiqiy sonlarning tartiblangan (x_A, y_A, z_A) uchligi orqali ifodalangan bo'lsin. Bu holda tartiblangan (x_A, y_A, z_A) uchlik A nuqtaning koordinatalari bo'ladi va $A(x_A, y_A, z_A)$ kabi belgilanadi. x_A son A nuqtaning **abssissasi**, y_A son A nuqtaning **ordinatasi**, z_A son esa A nuqtaning **applikatasi** deyiladi.


$Oxyz$ koordinatalar tekisligida $A(x_A, y_A, z_A)$ va $B(x_B, y_B, z_B)$ nuqtalar orasidagi masofa

$$AB = \rho(A, B) = \sqrt{(x_B - x_A)^2 + (y_B - y_A)^2 + (z_B - z_A)^2} \quad (1.2)$$

formula orqali topiladi.

Ushbu masalani qaraylik.

1. Toshkent arxitektura qurilish instituti Muhandislik qurilish infrastrukturasini fakulteti (MQIF) binosi orqa tomonida laboratoriya ishi o'tkazilishi rejalashtirildi. Laboratoriya o'tkazishda ko'p suv talab etiladi. Suv jo'mragi binoning old tomonida



joylashgan. Shlangni bino derazalari orqali o'tkazishga ruxsat berildi. Laboratoriya o'tkaziladigan joy "Bunker" kanselyariya mollari do'konidan janubga qarab 13 metr masofa bo'lib, suv jo'mragi "Bunker" dan sharqqa 12 metr, janubga 18 metr masofada joylashgan. Talab

etiladigan shlang uzunligini toping.

Yechish. MQIF binosi yonida joylashgan "Bunker" kanselyariya mollari do'konini koordinata boshi deb olib, janubga yo'nalgan o'qni Oy o'q, g'arbga yo'nalgan o'qni Ox o'q, birlik kesma deb 1 m ni olamiz.

Hosil bo‘lgan Dekart koordinatalar sistemasida jo‘mrak koordinatalari $J(-12, 18)$, laboratoriya o‘tkazish joyi koordinatalari $L(0, 13)$ bo‘ladi. JL kesma uzunligi topilsa, masala echilgan bo‘ladi.

$$JL = \sqrt{(0 - (-12))^2 + (18 - 13)^2} = \sqrt{169} = 13 \text{ m.}$$

Javob: 13 metr.

Izoh. Agar shlang bino atrofi bo‘ylab o‘tkazilsa, $18 + 12 + 13 = 43 \text{ m}$ shlang talab etilar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.A. Zaïtov. *Элементы линейной алгебры и аналитической геометрии. Учебное пособие.* – Ташкент: «Zuxra baraka biznes.» – 123 с.
2. A. A. Zaïtov. *Элементы дифференциального исчисления. Учебное пособие.* – Ташкент: изд-во ТГПУ. – 131 с.
3. A. A. Zaitov, A. Ya. Ishmetov. *Matematika 1. O‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: “Zuxra baraka biznes” – 225 bet.
4. D. U. Bozarov. (2022). *Determinantlar mavzusini mustaqil oqishga doir misollar. Fizika-matematika fanlari jurnali, 3(1).*
5. A.R. Qutlimurotov. O‘.H.Bozorova. *Geometrik almashtirishlar-Academic research in educational sciences, 2(5), 1497-1501, 2021*
6. Bozarov D. U. *Chiziqli va kvadratik modellashtirish mavzusini mustaqil o‘rganishga doir misollar //Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences.* – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 24-28.
7. . <https://t.me/zaamath>
8. <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/2606>

IoT ASOSIDA AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGIDA M2M TEKNOLOGIYASINI QO‘LLASH

Alevtina Aleksandrovna Muradova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
Telekommunikatsiya inqiniringi kafedrsa dotsenti

Ramazon Qodir o‘g‘li Qosimov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
Telekommunikatsiya tarmoqlari mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqola aqlli qishloq xo‘jaligi uchun Narsalar Interneti (Internet of Things - IoT) tizimlari bo‘yicha eng so‘nggi tadqiqotlarni taqdim etadi. Ma‘lumotlar M2M texnologiyalari va aqlli qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun statistik usullardan foydalangan holda yozildi.

***Kalit so‘zlar:** IoT, M2M “mashinadan-mashinaga” aloqasi, monitoring, aniq qishloq xo‘jaligi, aqlli logistika.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены последние исследования систем Интернета вещей (IoT) для умного сельского хозяйства. Данные были записаны с использованием статистических методов для выявления взаимосвязи между технологиями M2M и умным сельским хозяйством.

***Ключевые слова:** IoT, межмашинная связь M2M, мониторинг, точное земледелие, умная логистика.*

ABSTRACT

The article presents the latest research on Internet of Things (IoT) systems for smart agriculture. Data were written using statistical methods to identify the relationship between M2M technologies and smart agriculture.

Keywords: *IoT, M2M machine-to-machine communication, monitoring, precision agriculture, smart logistics.*

Dunyo aholisi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 1800-yildagi 1 milliarddan 2012-yilda 7 milliardga o'sgan holda, 2050-yilga borib, tezlashishda davom etishi va 9,6 milliarddan oshishi kutilmoqda. 2,5 milliarddan ortiq odamni oziqlantirish va keyingi bir necha o'n yilliklarda keng tarqalgan ocharchilikning oldini olish uchun BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilga kelib oziq-ovqat ishlab chiqarishni 70 foizga oshirish kerak. Bu qishloq xo'jaligi sektoriga katta bosim o'tkazadi, bu energiya narxlarining ko'tarilishi, yer osti suvlarini barqaror ravishda qazib olish orqali suv sathining pasayishi, qishloq xo'jaligi yerlarining urbanizatsiya natijasida yo'qolishi va qishloq xo'jaligi faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini cheklash uchun tartibga solishning kuchayishi. Shu sababli, fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalarini hosilni maksimal darajada oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga intilayotgani sababli, yanada oqilona va samaraliroq qishloq xo'jaligiga talab ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi resurslariga nisbatan yuqori bosimni hisobga olgan holda, M2M fermerlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda va o'z resurslaridan maksimal hosil olishda yordam berishning bir usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan M2M ilovalari fermerlarga boshqa faoliyat turlari qatorida mobil telefonlar, kompyuterlar va boshqa qurilmalar orqali tuproq holatini masofadan turib o'lchash, asbob-uskunalarini kuzatish, ob-havoni kuzatish, chorvachilik va ekinlarning sog'lig'ini baholash imkonini beradi. M2M harorat, vazn, joylashuv va boshqa qishloq xo'jaligi omillari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, bir-biriga va markaziy boshqaruv tizimlariga so'rovlarni avtonom tarzda yuborish va qabul qilish uchun

ishlatilishi mumkin. M2M qiymat zanjiridagi manfaatdor tomonlar modul sotuvchilari, ulanish provayderlari, M2M platformasi va ilovalari provayderlari, uyali aloqa operatorlari, agregatorlar va mobil virtual tarmoq operatorlari. Ma'lumotlar aktivlarga o'rnatilgan M2M modullari orqali yig'iladi va ulanish provayderlari (bu holda uyali aloqa operatorlari) orqali uzatiladi. Ushbu ma'lumot keyinchalik mobil yoki veb-illovalar orqali oxirgi foydalanuvchilarga ko'rsatilishi uchun ma'lumotlarni to'playdigan va qayta ishlovchi tizim integratorlari va yechim provayderlari tomonidan qabul qilinadi.

Mashinalararo o'zaro ta'sir - bu mashinalarga bir-biri bilan ma'lumot almashish yoki uni inson aralashuvisiz qurilmalar o'rtasida avtomatik rejimda bir tomonlama uzatish imkonini beruvchi texnologiyalarning umumiy nomi. Mashinadan mashinaga aloqalar Internet ashyolarining muhim tarkibiy qismidir. Mashina va mashinaning o'zaro ta'siri g'oyasi uchta elementdan iborat. Tasavvur qiling, raqamli qurilma (mashina) A, har qanday ma'lumotni yig'ish bilan band. Yig'ilgan ma'lumotlar aloqa kanali B (simli yoki simsiz) orqali A qurilmasidan ma'lum masofada joylashgan C qurilmasiga (mashina) uzatiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi va natijalarni saqlaydi va kerak bo'lganda A qurilmasi uchun boshqaruv buyruqlarini ishlab chiqaradi (1-rasm). Bunday sxema inson aralashuvisiz ishlaydi (mashina mashina bilan aloqa qiladi).



1 - rasm. M2M “mashinadan-mashinaga” aloqasi

M2M kontseptsiyasi turli texnologik va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish uchun telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarini birlashtiradi. M2M texnologiyalari turli sohalarda – qishloq xo'jaligi, energetika, logistika, yuk tashish,

moliya, savdo, xavfsizlik, menejment, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalarda qo'llaniladi. [1]


Mashinadan mashinaga aloqani amalga oshirish uchun barcha mumkin bo'lgan ma'lumotlarni uzatish vositalari elektr liniyalari, optik tolali liniyalar, radio liniyalaridan foydalaniladi. Simsiz M2M aloqalaridan foydalanish aniq afzalliklarni beradi. Birinchidan, simli ulanishni o'rnatish murakkab bo'lgan masofaviy ob'ektlarni kuzatish va boshqarish qobiliyati. Ikkinchidan, yangi qurilmalarni qo'shimcha xarajatlarsiz tez va oson ulash imkoniyati.

M2M texnologiyasi uzoqdan joylashgan ob'ektni kuzatish va boshqarishga yordam beradigan, insonning bevosita aralashuviga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradigan, shuningdek, jarayondagi potentsial inson xatolarini cheklashga yordam beradigan bir qator innovatsion ilovalarni ochdi. Qishloq xo'jaligida M2M quyidagi sohalarda samaradorlikni oshirish potentsialiga ega: Real vaqt rejimida monitoring va ogohlantirish xizmatlari orqali ekinlar va chorva mollarining holati to'g'risida ma'lumotlar mavjudligini yaxshilash; Real vaqt rejimida masofadan boshqarish va monitoring qilish orqali qishloq xo'jaligi texnikasining samaradorligi va uzoq umr ko'rishini maksimal darajada oshirish; Logistika kuzatish orqali mahsulotni distribyutorlar va chakana sotuvchilar orqali oxirgi foydalanuvchilarga tashishda yo'qotishlarni kamaytirish.

M2M ning qishloq xo'jaligidagi mumkin bo'lgan ilovalarini beshta segmentga ajratish mumkin; uskunalarni boshqarish va monitoringi; aniq qishloq xo'jaligi; atrof-muhit monitoringi; chorvachilik va baliqchilikni boshqarish; aqlli logistika.

Ushbu turli xil Agri M2M ilovalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng keng tarqalgan foydalanish holati uskunalar monitoringi, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarda (2 - rasm). Buning sababi shundaki, monitoring M2M qo'llash uchun eng oson ilovadir va u eng muhimi hisoblanadi, chunki u qimmat uskunalarini masofadan boshqarish, kuzatish va ularga qarash imkonini beradi. Kuzatilgan ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda logistika menejmenti (masalan,

aqlli logistika) eng kam tarqalgan dastur hisoblanadi. Buning sababi shundaki, sun'iy yo'ldosh texnologiyasi yuklarni kuzatishda juda tez-tez qo'llaniladi.



2 - rasm. Agri M2M ilovalari (ma'lumotlar xizmatlar namunasi asosida ko'rsatilgan)

Uskunalar monitoringi. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab chuchuk suvdan foydalanishning qariyb 70% qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, har yili qishloq xo'jaligi o'zi ishlatadigan suvning 60 foizini yoki 1500 trillion litrni isrof qiladi. Bu kuniga to'rt trillion litrga teng. Suv isrofgarchiligining asosiy sabablari sug'orish tizimlarining oqishi, dalalarga suv taqsimlashning samarasiz usullari va quruq muhitga mos bo'lmagan ekinlarni yetishtirishdir. Sug'orish tizimlarining aqlli monitoringi fermerlarni texnika buzilgan taqdirda ogohlantirish, suv nasoslarini masofadan boshqarish imkonini berish orqali ushbu muammoni hal etish imkonini beradi, bu esa suv isrofgarchiligini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. M2M yechimlari orqali kuzatilishi mumkin bo'lgan boshqa uskunalarga traktorlar, kombaynlar, tanklar va nasoslar kiradi, bu erda joylashuvi, holati, ish holati va boshqa diagnostika masofadan va avtomatik ravishda kuzatilishi mumkin.

M2Mga asoslangan uskunani monitoring qilish dasturiga misol sifatida, sug'orish sensorlari datchiklar o'simlikning sug'orishga bo'lgan ehtiyoji va suvga bo'lgan talabini kuzatish hamda masofadan turib suvdan foydalanishni optimallashtirish uchun

tuproqqa oʻrnatilgan. Tadqiqotchilar sugʻorish sensorlaridan foydalanish suv istemolini taxminan 70% ga kamaytirishi mumkinligini maʼlum qildi.

Aniq qishloq xoʻjaligi (yoki ekinlarni boshqarish). Aniq qishloq xoʻjaligi ekinlar va uskunalarni masofadan kuzatish, oʻlchash va monitoring qilish, shuningdek, ob-havo, tuproq va havo sifati va boshqa omillar toʻgʻrisidagi real vaqt maʼlumotlaridan fermerlarga oʻz faoliyatida yanada samaraliroq va aniqroq boʻlishiga yordam beradigan tahliliy modellarni yaratish bilan bogʻliq. Ekinlarni ekish, oʻstirish, yigʻish va tashish boʻyicha qarorlar, bu narxning yaxshilanishiga va barqaror taʼminot zanjiriga olib keladi. IBM hisob-kitoblariga koʻra, barcha hosil yoʻqotishlarining 90 foizi ob-havo bilan bogʻliq va aniq qishloq xoʻjaligi tizimlarini qoʻllash orqali ob-havoni bashorat qilish natijasida hosil boʻlgan zararni taxminan 25 foizga kamaytirish mumkin.

M2M asosidagi ekinlarni boshqarish zararkunandalarga qarshi kurashda ham qoʻllaniladi. Misol tariqasida Kanadada ishga tushirilgan Semios zararkunandalariga qarshi kurash tizimi boʻlib, u aniq qishloq xoʻjaligi, zararkunandalarga qarshi biologik nazorat va maʼlumotlarni boshqarishni birlashtiradi. Tizim hasharotlar zararkunandalari, oʻsimliklar kasalliklari va mikroiklimlarni kuzatib boradi. U ob-havo stansiyalaridan, zararkunandalarning kunlik faolligini kuzatuvchi kamerali tuzoqlardan va zararkunandalarning juftlashishini buzish uchun masofadan boshqariladigan aerezolli feromon dispenseridan iborat (feromonlar pestitsidlarga nisbatan kamroq zaharli va tejamkor muqobildir). Barcha toʻplangan maʼlumotlar simsiz ravishda Semios asboblar paneliga uzatiladi va keyin deyarli real vaqt rejimida smartfon yoki planshet orqali fermerlarga uzatiladi. Zararkunandalarni nazorat qilish qobiliyati kimyoviy pestitsidlarga qaramlikni kamaytiradi.

Atrof-muhit monitoringi. Koʻpgina mamlakatlarda qishloq xoʻjaligi pestitsidlar, oʻgʻitlar va agrokimyoviy moddalarni qoʻllash orqali ifloslanishning yetakchi manbai boʻlib, ular dalalardan daryolarga oqishi va dengiz muhitining ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi, oʻrmon xoʻjaligi va boshqa yerdan foydalanish issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 24% ni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi jarayonlari hozirda asosan inson tekshiruvi orqali nazorat qilinadi, bu vaqt va xarajatlar cheklovlari bilan to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, potentsial ekologik tahdidlarning aksariyati ko'pincha inson ko'ziga sezilmaydi va shuning uchun tekshirilmaydi. M2M atrof-muhit monitoringi yechimlaridan foydalanish, ko'pincha kam quvvatli qurilmalarga ega bo'lgan joylarda uzatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdorini oshirish bilan birga monitoring xarajatlarini kamaytirish potentsialiga ega. Ushbu yechimlar suv toshqini uchun suv sathining monitoringi, turli gazlar (masalan, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi va boshqalar) darajasiga asoslangan havo sifati, fotoelektr va quyosh tizimlari va issiqxona monitoringida foydali bo'lishi mumkin.

Chorvachilik va baliqchilikni boshqarish. Chorvaning joylashishini kuzatishdan tortib, sog'lig'i va odatlarini nazorat qilishgacha chorvachilikni boshqarish hozirgi vaqtda fermerlarning yuqori darajadagi kuchini talab qiladigan bir qator masalalarni qamrab oladi. M2M yechimlari fermerlarga chorvaning salomatligi va farovonligi haqida aniq ma'lumot olishga yordam beradi, aks holda ularni kuzatish va tahlil qilish qiyin bo'lishi mumkin. Misol uchun, fermerlar sigirlari qachon issik yoki buzoqlash arafasida ekanligini bilish, ularning sog'ish chastotasini kuzatish yoki qo'ylarining harakatini kuzatish va istalgan vaqtda ularning aniq manzilini aniqlash uchun o'z podalarini masofadan turib kuzatishi mumkin. Bundan tashqari, hayvonlardan kelib chiqadigan bir qator kasallik epidemiyalari bilan chorva mollarining sog'lig'ini nazorat qilish zarurati sezilarli darajada oshdi. Bir qator M2M yechimlari veterinariya shifokori aralashuvisiz aniqlash qiyin bo'lgan kasalliklarni erta aniqlashda yordam berish uchun sigir va parrandachilarga tana harorati va ovqatlanish odatlari haqida ma'lumot olishga yordam beradi.

Aqlii logistika. Dunyo miqyosida ishlab chiqarilgan umumiy oziq-ovqatning 40% dan ortig'i har yili isrof qilinadi va uning 20% dan sal ko'prog'i transport va saqlash bilan bog'liq isroflarga to'g'ri keladi. Ushbu yo'qotishlar qishloq xo'jaligini etkazib berish zanjirining turli nuqtalarida, transportdagi kechikishlar (ko'proq tez buziladigan mahsulotlar uchun) yoki noto'g'ri saqlash, shu jumladan kemiruvchilar tomonidan

zararlanishi yoki noqulay saqlash sharoitlari yoki ishlab chiqarishdan tortib to yetkazib berishgacha bo'lgan boshqa ko'plab bosqichlarda sodir bo'lishi mumkin. Mahsulotni isrof qilish, past mahsuldorlikka qaraganda kattaroq muammodir, chunki bu ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlariga sarflangan barcha vaqt va resurslarni behuda sarflashdan dalolat beradi.[2]

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini flot, yuk va baliq ovlash kemalari orqali tashishni nazorat qilish uchun M2M dan foydalanish ushbu muammoni samarali hal qilish imkonini beradi. Flotni boshqarishda M2M yechimlari oziq-ovqat isrofgarchiligini yiliga 10-15% ga kamaytirishi mumkin, bu butun O'zbekiston aholisini oziqlantirishga teng. Bu M2M asosidagi flotlarni boshqarish ilovalarini, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarda qishloq xo'jaligi sohasida kengaytirish uchun muhim imkoniyatni taqdim etadi.

M2M uskunalari bozorining rivojlanishining taxminlari va prognozlari juda optimistik va rivojlanayotgan M2M sanoatining salohiyati juda katta. Ushbu bosqichda M2M texnologiyasi faol rivojlanishda davom etmoqda, tizimlar yanada yuqori aqlli bo'lib qoldi va ularni qo'llash doirasi deyarli cheksiz kengaydi. Simsiz aloqa qurilmalari narxining pasayishi, ularning ishlashi va funkcionalligi oshishi hisobiga turli M2M yechimlarini amaliy amalga oshirish imkoniyatlari ham oshdi. Simsiz signal yordamida masofaviy qurilmalarni boshqarish imkoniyati joy va vaqtga bog'liqlikni minimallashtirish imkonini berdi. M2M modullarining so'nggi avlodi GSM/GPRS, GPS, Bluetooth, ZigBee va boshqalar kabi asosiy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

M2M ilovalari, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sektoriga mos keladi, bu fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalariga boshqa faoliyat turlari qatorida jihozlarni kuzatish, o'z ekinlari va chorva mollarini aniq boshqarish, ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini baholash, traktorlar, kombaynlar va boshqa transport vositalarini kuzatish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi resurslariga yuqori bosimni hisobga olgan holda, M2M (mashinadan mashinaga) fermerlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va

hosildorlikni oshirishga yordam berish, shuningdek, qishloq xo'jaligining kengroq qiymat zanjirlarida shaffoflik va samaradorlikni oshirish uchun xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] ETSI TS 102 690 V2.1.1 (2013-10) Technical Specification Machine-to-Machine communications (M2M); Functional architecture

[2] Jan Stryjak, Akanksha Sharma, Barbara Arese Lucini, Sylwia Kechiche. ANALYSIS Agricultural machine-to-machine (Agri M2M): a platform for expansion. March 2015

AVTOMOBIL SUG'URTASIDA SUG'URTA QOPLAMALARI DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ikromov Ahmadjon Shavkat o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish kafedrası”

1-kurs tayanch doktoranti

E-mail: ikromvakhmadjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada avtomobil sug'urta qoplamalariga bo'lgan talab va unga ta'sir etuvchi omillar asosida modeli, talab uzoq muddatli dinamikasining vaqtli qatorlar modeli va neyron to'rlari orqali modeli tuzilgan. Avtomobil sug'urtasida sug'urta qoplamalariga bo'lgan talab kontsepsiyasi bo'yicha tadqiqotchi olimlarning izlanishlari o'rganildi. Tuzilgan modellarning prognoz xatoligi o'lchovlari orqali solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: *avtomobil sug'urtasida sug'urta qoplamalariga bo'lgan talab; korrelyatsiya koeffitsiyenti; ko'p omilli regressiya; vaqtli qatorlar; ARIMA modeli; neyron to'rlari; prognoz xatolik o'lchovlari.*

ANNOTATION

The article develops a model based on the demand for car insurance coverage and the factors affecting it, a model of long-term dynamics of demand through time series and neural networks. Researchers have studied the concept of demand for insurance coverage in car insurance. Comparative analysis of the constructed models was carried out by means of forecasting error measurements.

Keywords: *demand for insurance coverage in car insurance; correlation coefficient; multifactor regression; time series; ARIMA model; neural networks; forecast error measurements.*

Kirish

Sug'urta tashkilotlari o'z imkoniyatlaridan tashqaridagi risklarni qabul qilishi ularning moliyaviy muammolarga duch kelishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa ishtirokchilariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirda ko'pgina horijiy mamlakatlar sug'urtalovchilarning moliyaviy risklarini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilishgan. Mamlakatimiz sug'urta tizimida ham moliyaviy risklarni oldindan baholash va bunda ekonometrik modellardan foydalanish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Avtomobil sug'urtasi mijozlarining narxga nisbatan sezgirligi va bu ularning saqlanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Turli mijozlar guruhlarini aniqlash uchun metodologiyalar ishlab chiqilgan potentsial qiymatini baholash uchun modellarni qo'llash bilan sug'urta kompaniyasi mijozlar, va ularning narxlari egiluvchanligini hisobga olgan holda, farqni taklif qilish foydali bo'ladi ularni sug'urta portfelining mijozlari sifatida saqlash uchun ta'riflar yaratish imkonini beradi. Ayniqsa avtomobil sug'urtasida da'volari paydo bo'lgan taqdirda bir nechta modellarni ko'rib chiqish mumkin.

Jahon tajribasida sug'urta tushumlarini tadqiq qilishda nafaqat omillar ta'sir orqali GLM ya'ni umumiy chiziqli modellashtirishdan foydalanilgan, balki boshqa ko'plab davlatlarda sug'urta mukofotlari xususiyatlarini tadqiq etishda, uning dinamikasiga ko'proq e'tibor qaratishgan. Xususan, Harvey(1985,1989) o'z tadqiqotlarida sug'urta tushumlari, polislar soni yoki sug'urta kompaniyalarining aktivlar hajmini sug'urtaga bo'lgan talab uchun proksi o'zgaruvchisi sifatida kiritgan holatda uning dinamikasini vaqtli qatorlar orqali o'rganish kerakligini, bunda ularning siklik xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanishni ta'kidlaydi.

Avtomobil sug'urtasida sug'urta qoplamalari dinamikasini tahlil qilish usullarini takomillashtirish bo'yicha horij mamlakatlari olimlaridan Alma Cohen, Rajeev H. Dehejia[1], Wilson Mayorga va Diego Torres[2], Muhammad Zand, Amir Samimi, Xashayar Xavarian[3], kabilar ilmiy izlanishlar olib borishgan bo'lsa, mamlakatimizda bu sohani Sh.S.Nasretdinova[4] , Abdug'afforov A.[5] , S.S.Nasretdinov[6] kabi olimlar o'z ishlarida o'rganganlar.

Natija va muhokamalar

Avtomobil sug'urtasida sug'urta qoplamalarini modellashtirishning eng asosiy ikkita ko'rsatkichi bor. Birinchisi da'volar sonidir. Chunki polis egasining qayta qayta murojati sug'urta kompaniyasining zarariga sababchi bo'ladi. Bu turdagi haydovchilarni anqilash sug'urtalash uchun muhim. Ikkinchisi da'voning jiddiyligi. Polis egasi deyarli sug'urta da'volarini yuzaga keltirmagan bo'lsada, kam bo'lgan da'volar ancha jiddiy bo'lishi ham kompaniyaga yirik xavf tug'dirishi mumkin.

Keltirilgan holatga ko'ra ikkala modelni ham anqilash maqsadga muvofiq.

"Da'vo chastotasi uchun model"							
Call:							
	glm(formula = numclaims ~ 0 + offset(log(exposure)) +						
	factor(agecat) +						
	area + veh_value + veh_age + veh_value:veh_age +						
	area:veh_value,						
	family = poisson, data = subset(kangtrain))						
Deviance							
Residuals:							
	Min	1Q	Median	Max			
	-0.8100	-0.4473	-0.3437	4.0577			
Coefficients:							

		Estimate	Std. Error	z value	Pr(> z)		
	-				4.42e-11		
factor(agecat)1	1.16006	0.17606	-6.589	***			
	-				4.03e-16		
factor(agecat)2	1.38318	0.16997	-8.138	***			
	-						
factor(agecat)3	1.41954	0.16979	-8.361	< 2e-16 ***			
	-						
factor(agecat)4	1.41954	0.16887	-8.754	< 2e-16 ***			
	-						
factor(agecat)5	1.72748	0.17682	-9.770	< 2e-16 ***			
	-						
factor(agecat)6	1.62521	0.18110	-8.974	< 2e-16 ***			
	-						
areaB	0.24402	0.13895	-1.756	0.079069			
	-				0.004159		
areaC	0.35506	0.12390	-2.866	**			
	-				0.001023		
areaD	0.56327	0.17151	-3.284	**			
	-						
areaE	0.25571	0.19805	-1.291	0.196669			
	-						
areaF	0.41857	0.24618	-1.700	0.089078			
Signif. codes: 0 '***' 0.001 '**' 0.01 '*' 0.05 '.' 0.1 ' ' 1							

1-rasm. Da'vo chastotasi uchun model koeffitsientlari.

[Muallif tomonidan R Studio]

Bu yerda ikki bosqichli modellardan foydalanilgan – rasm yuqoridagi jadvaldan biz da'vo chastotasini bashorat qiluvchi model tuziladi. Bu yerda Y sifatida da'volar sonini (numclaims) qabul qilamiz:

$$\text{Numclaims} = \text{offset}(\log(\text{exposure})) + \text{factor}(\text{agecat}) + \text{area} + \text{veh_value} + \text{veh_age} + u$$

Bu yerdagi erkli o'zgaruvchilar koeffitsienlari polis egasi bo'lgan shaxsning qaysi hududda yashashi yoki qancha tajribaga ekanligi va boshqalarga qarab yuqoridagi jadvaldan foydalanish orqali yoziladi.

"Da'vo jiddiyligini hisoblovchi model"					
Call:					
	glm(formula = (claimcst0/numclaims) ~ 0 + gender + veh_age + agecat				
Deviance					
Residuals:					
	Min	1Q	Median	3Q	Max
	-0.065718	-0.042700	-0.023112	0.000102	0.116266
Coefficients:					
		Estimate	Std. Error	z value	Pr(> z)
	genderF	7.43716	0.17132	43.412	< 2e-16 ***
	genderM	7.65216	0.18625	41.086	< 2e-16 ***
	veh_age	0.12697	0.04548	2.792	0.00531 **
	agecat	-0.09286	0.03323	-2.795	0.00526 **
	Signif. codes: 0 '***' 0.001 '**' 0.01 '*' 0.05 '.' 0.1 ' ' 1				

2-rasm. Da'vo jiddiyligi modeli koeffitsientlari.

[Muallif tomonidan R Studio]

Ikkinchi modelning o'zi ikkiga bo'linadi. Bu polis egasining jinsiga qarab ikkiga ajraladi. Modelning umumiy ko'rinishi.

$$\frac{claimst0}{numclaims} = gender + veh_age + agecat + u$$

Modelning birinchi qismi ayollar uchun mo'ljallangan

$$\frac{claimst0}{numclaims} = 7.43716genderF + 0.12697veh_age - 0.096286agecat + u$$

Modelning ikkinchi qismi erkaklar uchun mo'ljallangan

$$\frac{claimst0}{numclaims} = 7.65216genderM + 0.12697veh_age - 0.096286agecat + u$$

Modellardan koeffitsientlardan ko'rinib turibdiki erkaklar yuzaga keltiradigan sug'urta da'volari ayollarga nisbatan 3% ga jiddiydir.

Xulosa

Avtomobil sug'urta qoplamalari dinamikasini o'rganish jarayonida shuni aniqladikki sug'urtalashda har bir faktorga juda ham yuqori ahamiyat berish zarur. Bu albatta kompaniyaning moliyaviy ahvoriga juda katta ta'sir etuvchi jarayon hisoblanadi. Avtomobillarni majburiy sug'urtalash bo'yicha polis narxini hisoblayotgandagi ko'zda tutilgan faktorlarning deyarli barchasini qaytadan ko'rib ularni baholab chiqish zarur. Masalan bizda hudud bo'yicha faqatgina 3 ta ko'rsatkich mavjud. Polis narxini hisoblayotganimizda Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa viloyatlar deb kiritilgan ilmiy ishimiz ko'rsatib turgan natijlarga ko'ra har bir hudud bo'yicha bu faktorni alohida o'rganib chiqish zarur.

Avtomobillardan foydalanilgan yillar ortib borgani sari uning sozlik holati ham kamyib boradi bu holat ham sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolligini oshirib yuboradi. Tadqiqotimiz natijlariga ko'ra bu ham ahamiyatli faktor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *The Effect of Automobile Insurance and Accident Liability Laws on Traffic Fatalities* // Prepared by Wilson Mayorga and Diego Torres Presented to ASTIN and AFIR/ERM Colloquia 20-24 August 2017 Panama

2. *Improving automobile insurance ratemaking using telematics: incorporating mileage and driver behaviour data* // Research Group on Risk in Insurance and Finance www.ub.edu/riskcenter Working paper 2017/01 // Number of pages 20

3. *Car Insurance Plans Could Make a Society Safer* // [Journal of Geoscience and Environment Protection](#)

Volume 4, Issue 12 (December 2016) SSN Print: 2327-4336 ISSN Online: 2327-4344 [Google-based Impact Factor: 0.89 Citations](#)

4. S.S.Nasretdinov, "Koronavirus pandemiyasi davrida sug'urta tashkilotlarining faoliyati" - T.: *Innovation rivojlanish-nashriyot-matbaa uyi*, 2020. – 329b.

5. Насретдинова Ш.С., Абдугаффаров А., Хусаинов Г.Л. Худудлар сугурта бозорининг потенциални баҳолаш: *Жамоавий монография* – Т.: "Молия", 2015

6. <http://forinsurer.com>. ("Forinsurer" onlayn jurnal rasmiy sayti)

7. <http://www.insur-info.ru> («Страхование сегодня» sayti)

8. <http://www.swissre.com>. (Swiss Re group sayti)

9. <http://insurance.uzreport.uz>. (Uzreport sayti)

10. <http://www.insuranceeurope.eu> (Yevropa sug'utasi sayti)

FAVVORA QUDUQLARIDA ASFALTMOLAPARAFIN TO‘PLANISHIGA QARSHI KURASHNING ISSIQLIK VA FIZIKAVIY USULLARI

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

quvonch_uz2@mail.ru

ANNOTATSIYA

Asfaltmolaparafin (ASP) to‘planishiga qarshi kurash texnika va texnologiyasining rivojlanishi uzoq tarixga ega. Lekin hozirgi kunda kelib bu muammoni yechish bilan bo‘lgan qiyinchiliklar bartaraf etilmagan.

Kalit so‘zlar: *Asfaltmolaparafin, issiqlik, fizikaviy, kimyoviy, mexanik.*

ABSTRACT

The development of techniques and technology to fight against the accumulation of asphalt tar paraffin has a long history. But until now, the difficulties of solving this problem have not been solved.

Asfaltmolaparafin to‘planishiga qarshi ko‘rash ikkita yo‘nalishdagi ishlarini bajarishni ko‘zda tutadi. Birinchidan, to‘plamlar hosil bo‘lishini oldini olish bo‘yicha. Bunday tadbirlarga quyidagilar kiradi: silliq qoplamalardan foydalanish; kimyoviy usullar (modifikatorlar, depressatorlar, dispergatorlar, namlovchilar); fizikaviy usulda (tebratma, ultra tovushli, elektrik va elektromagnit maydonlarining ta’siri). Ikkinchi yo‘nalish – ASP to‘planishini ketkazish. Bu issiqlik usullari (qaynoq neft yoki suv bilan yuvish issiqlik toshuvchi sifatida o‘tkir bug‘ elektr qizdirgichlari, induksion qizdirgichlar, ta’sirlashganda issiqlik ajralib chiqadigan kimyoviy reagentlar); mexanik usullar (qirg‘ichlar, qirg‘ich-markazlovchilar); kimyoviy usullar (erituvchilar va ketkazuvchilar) [1, 5].

Bugungi kunda bundan bir necha o'n yilliklardagi kabi neftchilar quyidagi usullardan foydalanib kelishmoqda: issiqlik, fizikaviy, kimyoviy, mexanik va qoplamalarni qo'llash. Alohida konlarda eksperimental sifatida tebranma va magnitli usullarni qullash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Sanab o'tilgan usullar katta bo'lmagan o'zgarishlar, ko'pincha o'zgarishsiz turli ishlatish usullari bilan quduqlarda qo'llanib kelinmoqda.

Issiqlik usullari. Issiqlik usullari asfaltsmolaparafinning 50 °C dan yuqori haroratlarda erishi va qizigan yuzadan oqib uni tark etishiga asoslangan. Yuqori haroratda ta'sir etish usullari bevosita to'planish zonasiga joylashadigan yoki quduq ustida issiq agent ishlab chiqaradigan maxsus issiqlik manbayini talab qiladi.

Hozirgi vaqtda quyidagilar qo'llaniladigan texnologiyalardan foydalaniladi:

- issiqlik tashuvchi sifatida qaynoq neft yoki suv;
- o'tkir bug';
- yer ustida va quduqda foydalaniladigan elektr pechlari;
- issiqlik ajralib chiqadigan kimyoviy reaksiyalarga olib keladigan agentlar.

Issiqlik tashuvchilarni qo'llash texnologiyasi suyuqlikni maxsus qizdirgichlar-harakatlanadigan qozonxona uskunalari qizdirish va uni to'g'ri yoki teskari yuvish usulida quduqqa haydashni ko'zda tutadi.

Bu maqsadda sanoat maxsus agregatlar – suyuqlikni 150 °C haroratgacha qizdiradigan qozonxona va 16 MPa gacha bosim hosil qiladigan nasoslar bilan jihozlangan deparafinizatsion harakatlanadigan qurilmalar ishlab chikaradi. Qizdirilgan agent to'plamlarni eritish va ketkazishni ta'minlab quduqda ma'lum vaqt aylanib turishi mumkin. Odatda quduqlarni teskari yuvish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki teskari yuvishda to'g'ri yuvishdagi kabi asfaltsmolaparafin tiqinlari hosil bo'lmaydi. PPUA-1200/100 rusumidagi 310 °C gacha harorat va 10 MPa gacha bosim hosil qiladigan harakatlanadigan qurilmalar ishlab chiqaradigan o'tkir bug'dan foydalanish to'plamlarga qarshi kurash maqsadlari uchun samarasiz. Bug' quduqqa haydalganda bug'ning jadal kondensatsiyasi bo'ladi va avtorlarning

ta'kidlashicha 300-400 m chuqurlikda bug'ning harorati quduqning haroratigacha pasayadi.

Fizikaviy usullar. Fizikaviy usullar elektrik, magnitli, elektromagnitli maydonlar, mexanik va ultratovushli tebranishlarni qo'llashga asoslangan. Bu usullardan nisbatan samaradorligi yuqorisiga asfaltmolaparafinli neftga o'zgaruvchan elektromagnit maydonlarni ta'sirini kiritish mumkin. Laboratoriya va kon tadqiqotlari natijasida aniqlanganki, neftga elektromagnit maydoni bilan ishlov berilganda quvilarning parafinlanishi ahamiyatli darajada kamayadi. Maydonning to'plamlar hosil bo'lish jadalligiga ta'sir qilish darajasi neftning fizik-kimyoviy xossalari, tarkibi, maydonning jadalligi va neft oqimiga maydon bilan ishlov berish rejimiga bog'liq.

Ma'lumki, neft turli magnitli qabul qiluvchanlik xarakteri va ko'rsatkichi hamda elektr qutblanishiga ega bo'lgan aralashma moddari o'zida namoyon qiladi. O'zgaruvchan elektr maydoni o'zgaruvchan elektr maydonining kuchlanishi va o'zgaruvchan magnit maydonining kuchlanishi bilan xarakterlanadi.

Neft oqimiga maydon bilan ishlov berilganda neft oqimining butun hajmi bo'ylab parafinning qo'shimcha kristallanish markazi hosil bo'ladi. Kristallar jihozlarning devorida emas balki neftning hajmida o'sadi va jihozlarda ASP to'mlanish jadalligini kamaytiradi. Hozirgi vaqtda kimyoviy reagentlar va maxsus jihozlarni olish qiyinligi tufayli doimiy magnitlar asosidagi ASP hosil bo'lishini bartaraf qiladigan qurilmalar nisbatan samarador hisoblanadi. Oxirgi 5 yil mobaynida bumaqsadda "Petroleum Magnetik Interneshnl" kompaniyasi (Odessa sh. va Texas shtati, AQSH) ishlab chiqaradigan "Magniflo" petromagnitli qurilmasi taklif qilinmoqda. Rossiyada bu qurilmalar turli firmalar orqali 8-12 ming AQSH dollariga sotiladi. Bu jihozlarni qurilmani olish va keltirib ishlatish O'zbekiston sharoitida yaxshi iqtisodiy va texnologik natijalarga erishish imkonini bermaydi.

Yuqorida takidlab o'tilganidek, ASP to'planishini oldini olish va bartaraf qilish issiqlik, fizikaviy, kimyoviy, mexanik va qoplamlarni qo'llash usullarini o'z ichiga oladi. Bu usullarning barchasini o'ziga xos afzalliklari va mavjud kamchiliklari bor. Jahon neft qazib chiqarish amaliyotida asfaltmolaparafin to'planishiga qarshi kurash

muammosi bundan 120 yildan avval yuzaga kelgan. Hozirgi kunda qayta ishlashga yuqori eruvchan parafin uglevodorodli, smolali va asfaltenli komponentlar bilan boyigan og'ir neftlar kiradi. Bundan tashqari, yildan yilga qotish harorati va qovushqoqligi yuqori bo'lgan yangi ishga tushirilayotgan neft konlarining soni ortib bormoqda [2].

Hozirgi vaqtda neft konlari jihozlarida asfaltmolaparafin to'plamlari hosil bo'lishini bartaraf qilishning ma'lum bo'lgan usullari bu muammoni to'liq yechish imkonini bermaydi va to'plamlarni bartaraf qilish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqori qovushqoqli neft konlaridagi quduqlarni ishlatish jarayonida ularda asfaltmolaparafin to'plamlari hosil bo'lishini asosiy omillari aniqlandi. Ular quduq tubida haroratning pasayishi, quduq stvolida haroratning pasayishi, neftdan undagi gazning ajralib chiqishi, quvurlarning g'adir-budirligi va boshqalar hisoblanadi.

Quduqlarda asfaltmolaparafin to'plamlari hosil bo'lishini oldini olish va bartaraf qilish usullari tahlil qilindi. Bu usullar orasida eng samarador usul quduqlarni ishlatish jarayonida neft oqimida ingibitorlarni qo'shish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хохлов Н.Г., Ваганов Р.Р., Шагитов З.М., Мустафин А.С. Удаление асфальто-смолистых веществ и парафина из нефтепроводов НГДУ «Южарланнефть» // Нефтяное хозяйство. 2006, №1, С, 110-111.

2. Юдина Н.В., Прозорова И.В, Турфикини Л.М., Лоскутова Ю.В. Композиции для очистки нефтепромыслового оборудования от асфальтосмолопарафиновых отложений // Химия в интересах устойчивого развития. №7. 1999. 315-319.

3. Axmedov X.R., Panjiyev H.A., Usmonov K.M. Surxandaro neftgazli regionidagi yuqori qovushqoqli neft konlarida quduqlarning qazib chiqarish samaradorligini oshirish texnologiyasi. *Academic Research in Educational Sciences*. January 2022.

4. Axmedov X.R., Panjiyev H.A., Usmonov K.M. Yuqori qovushqoqli neft va tabiiy bitum konlarini qazib chiqarish samaradorligini oshirish. *Academic Research in Educational Sciences*. November 2022.

5. Mansoori G.A. "Paraffin/Wax and Waxy Crude Oil. The Role of Temperature on Heavy Organics Deposition from Petroleum Fluids" an Internet publication <http://www.uic.edu/~mansoori/Wax.and.Waxy.Crude.html>

АРЫСТАНДАЙ АЙБАРЛЫ БОЛҒАН МАҒЖАН ЖҰМАБАЕВ**Азада Махаммадкәрім қызы Абдуғафурова**

Шыршық мемлекеттік педагогика университеті Қазақ тілі және әдебиеті

бағытының 2-курс студенті

Azadaabdugafurova2@gmail.comҒылыми жетекші: **Ж.А.Байзақов****АННОТАЦИЯ**

Ақын Мағжан Жұмабаев қазақ халқын бойына дарытып өлеңдерін сөз маржанындай терген кемеңгер жырау. Мағжан ақын "Алаш" партиясының озат мүшесі. Ақынның өлеңдері баға жетпес байлық.

Кілімті сөздер: *Дарынды тұлға, философ ақын, партия мүшесі, қазақтың қайратты ұлы, қазақтың деп қазақты оятқан жан.*

ANNOTATION

Poet Magzhan Zhumabayev is a talented poet, who wrote his poems like pearls of words, educating the Kazakh people. Magzhan is an outstanding member of the "Alash" party. Poet's poems are a priceless treasure.

Key words: *A talented person, a philosopher, a poet, a party member, a brave son of Kazakhs, a person who awakened Kazakhs to the fact that they are Kazakhs.*

Қазағымда ақын көп қой туылған

Туылғаннан жыр жазуға бұрылған.

Шәкәрім мен Абайлардай алыптың,

Ізін қуған ақынның бірі Мағжан!

Мағжан Жұмабаев Бекенұлы — 1893 жылы 25 маусымда Солтүстік Қазақстан облысы, қазіргі Мағжан Жұмабай ауданы Сасықкөл жағасында дүниеге келген. Ол Арғын тайпасының Атығай руының Құдайберді тармағынан шыққан. Атасы Жұмабай қажы, әкесі Бекен саудамен айналысқан дәулетті болған. Анамының есімі — Гүлсім. Мағжан ауыл молдасынан сауатын ашып 1905—1910 жылдары Қызылжардағы мешіт жанында белгілі татар зиялысы, мұсылман халықтарының азаттығы жолында күрескен М. Бегишевтің ұйымдастыруымен ашылған медреседе оқыды. Медреседе ақын Фирдауси, Сағди, Хафиз, Омар хайям, Низами, Науаи секілді шығыс ақындарының дастандарын оқып, талқылады.

1910—1913 жылдары Уфа қаласындағы "Ғалия" медресесінде білім алды. Онда татар жазушысы Ғ. Ибрагимовтен дәріс алып, белгім қайраткер С. Жантөринмен тығыз қарым-қатынас орнатады, болашақ көрнекті жазушы Б. Майлинмен танысады. Ақын 1918—1916 жылдары Омбы мұғалімдер семинариясында оқыды. Мағжан ақын "Алаш" партиясының Ақмола облысының комитетінің мүшесі. 1918—1919 жылдары Петропавл уездік земство басқармасында қызмет етті. Ол кездерінде-ақ:

*Сорлықазақ жаны алқымға тығылып,
Қара күн кеп, тіккен туы жығылып,
Алға баспай, барлық ісі кер кетіп
Нәр тата алмай, күшсіз, әлсіз бүгіліп,
Оқу-білім жақындатпай, жолатпай
Қырын қарап, қазақ ісін ұнатпай.*

—деп бастапқы өзінің ой пікірлеріндегі ұйқасты әуенін сонау "Сорлықазақ" атты өлеңіне төгіп салды. Сол соғыс дәуірінің келеңсіз сәттерін, қаншама жастардың оқу-білімге деген құштарлығы сөнуі, бұған дәлел.

1924 жылы 24 қарашада Мәскеу қаласындағы Шығыс еңбекшілері коммунистік университетінде қазақ жастарының жерлестік ұйымында жиналыс өтіп, олар Мағжанның 1922 жылы Қазанда 1923 жылы Ташкентте басылып шыққан жыр жинақтарын талқыға салды.

Ақынның "Күншығыс", "Жарыма", "Қазағым", "Жаралы жан", "Мен жастарға сенемін", "Туған жерім—Сасықкөл" секілді тырнақалды өлеңдерін "Шолпан" жинағында бастырып шығарады.

“Navoiyazot” AJ shaharda joylashganligi sababli shahar atmosferasiga juda kata salbiy ta’sir ko’rsatadi. Korxonadan chiqayotgan zaharli gazlar natijasida kislotali yomg’irlarning tez-tez sodir bo’lishi kuzatiladi. Natijada tuproq tarkibi keskin o’zgarishga uchraydi, o’simliklar o’sishi sekinlashadi, ba’zi hududlarda hosilning keskin kamayishi kuzatiladi. Insonlarda esa turli kasalliklar paydo bo’lishiga sabab bo’ladi.

Rivojlanayotgan yurtimizda ekologiya sohasiga e’tibor yanada kuchganini ekologiyani tahlil etuvchi sanitariya laboratoriyasi misolida ko’ramiz. Korxonaning sanitariya muhofazasi zonasi, Navoiy shahri va unga tutash hudud doirasidagi atmosfera havosidan namuna olish ishlarini olib borayotgani fikrimiz dalilidir. Shamol yo’nalishini hisobga olgan holda Navoiy shahri hududidagi atmosfera havosi holatini monitoring qilish natijalari tahlili “Navoiyazot” AJ korxonalariga xos bo’lgan fenol, og’ir metallar va shu kabi boshqa ifloslantiruvchi moddalarning yo’qligini, azot oksidlari hamda ammiakning esa standart tarkibi mavjudligini ko’rsatadi.

Korxonada joylashgan hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilash va ekologik xavfsizlikni oshirish bo’yicha barcha chora-tadbirlar “Navoiyazot” AJning o’z mablag’lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Atmosferaga chiqindi chiqishini kamaytirishning asosiy usuli korxonadagi filtr qurilmalarini yangilash, zamonaviylashtirishdir. Undan tashqari shahar hududida atmosferani tozalash uchun “Yashil makon” umumilliy loyihasi doirasidagi ishlarni davom ettirish, transport vositalaridan chiqadigan chiqindi miqdorini nibatan kamaytirish talab etiladi. Elektromobillarni ishga solish tavsiya etiladi.

Yurtimiz tabiatini muhofaza qiluvchi qonunlar endi yangi konstitutsiyamizda o‘z aksini topmoqda. Amaldagi konstitutsiyaning 50-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish kerakligi, 55-moddada esa o‘simlik va hayvonot dunyosini asrab avaylashimiz kerakligi aytib o‘tilgan.

Yangilanayotgan konstitutsiyamizda yurtdoshlarimizga sog‘lom ekologik muhitni yaratish, ekologik madaniyatni oshirish, ekologik huquqlarini ta‘minlash muhim masala sifatida qo‘yilgan.

Xulosa o‘rinda shuni aytishimiz mumkinki, tabiatni asrash har birimizning burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak. Zero, atrof-muhit sofliqi – hayot-mamot masalasidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Навои. Тошкент наشريёти-2000*
- 2.Навоий viloyatining sanoat ishlab chiqarishi. Navoiy-2021(yanvar-aprel)*
- 3.Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent-2007*
- 2.lex.uz*
- 3.uz.atomiye.com*
- 4.uz.m.wikipedia.org*
- 5.uzkimyosanoat.uz*
- 6. vaqt.ucoz.com*

OILANING MAKTABGACHA TA'LIM MUASASASI BILAN OLIB BORILADIGAN FAOLIYATIDAGI HAMKORLIGINI TASHKIL ETILISHI

Toshova Shaxnoza Tojinorovna

TerDUPI Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi hamda bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikni qanday tashkil etish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, sog'lom bola, rivojlanish, talablar, rivojlanish sohalari, rasmiy, norasmiy, tarbiyachi.

АННОТАЦИЯ

Идет дискуссия о важности формирования здорового образа жизни у дошкольников и о том, как организовать сотрудничество с родителями в этом процессе.

Ключевые слова: дошкольное образование, здоровый ребенок, развитие, потребности, направления развития, формальное, неформальное, воспитатель.

ANNOTATION

There is a discussion about the importance of creating a healthy lifestyle in preschool children and how to organize cooperation with parents in this process.

Keywords: preschool education, healthy child, development, requirements, areas of development, formal, informal, educator.

Har bir oilada ta'lim terbiya berishning o'ziga xos usul vosilari va bir qator qonun qoidalari bor. Bu tamoyillar esa bolaning tarbiyalanish faoliyatini samarali bo'lishini

taminlaydi. Bu qonun-qoidalar, rejimlarni nisbiy deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir bola –betakror ijtimoiy mavjudod bo‘lib, ularning o‘ziga xos shaxsiyati, ruhiyati va xulq-atvor bor. Shuning uchun shunga qarab muomila qilish zarurdir. Tarbiyada ota-onalarning masuliyati, etibori, obroi juda ahamiyatlidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan ota-onalar majlisining ahamiyati tarbiya jarayonida ota-onalarga yordam berish, ular orasida tajribalar almashish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari va boshlang‘ich sinflarda ota-onalar hamshira, psixolog hamda pedagoglar bilan birga tashviqot ishlari olib borish maqsadga muvofiqdir. Har bir bolaning o‘z dunyosi o‘z olami, dunyoqarashi, qiziqishlari bir olam bo‘ladi. Bola tarbiyasini tog‘ri yo‘lga qo‘yishga barchamiz birdek masulmiz. Ayniqsa psixologlar mashlati bugungi kunda juda muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ta’limning quyi qismi bo‘lgan maktabgacha ta’lim yoshlarimizning yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga muhim poydevor bo‘lib hizmat qiladi. Bugungi kunda yutdboshimiz SH.M. Mirziyoyev tomonidan bu ta’lim turiga juda katta etibor qaratilgan holda ko‘plab qonun, qaror va farmoniyishlar qabul qilishi bilan birgalikda Prezidentimizning 2018 yilda 28-dekabrda Oliy Majlisga murojotnomasida quyidagi fikrlarni etirof etgan edilar. ”Ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsiplariga asoslanishi lozim, ya’ni ta’lim jarayonlari maktabgacha ta’lim tashkilotlardan boshlanishi va bu jarayon butun umr davom etishi lozimligini “takidlab o‘tganlar.¹² Bunda tarbiyachilar ota-onalarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilishi lozim. Buning uchun esa har bir oyda deydik haftada bir kuni ota-onalar kuni sifatida tashkil etilishi lozim. Bu jarayon xorijiy tajribalarga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda ota-onalar o‘z farzandlari bilan birgalikda o‘quv jarayonida ishtirok etadi. Albatta bu jarayon bolalar uchun juda maroqli va qiziqarli hisoblanadi.

¹² Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

Har bir jarayon faoliyat o'zining tarixiga egadir. Aynan pedagogik jarayon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, pedagogik faoliyatning paydo bo'lishi insoniyat tarixining qadim zamonlariga borib taqaladi. Bu kasb tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarda, kasb-xunar kollej va akademik liseylarda ta'lim-tarbiya beruvchi yoshlarni xayotga mexnatga tayyorlovchi kishilarni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz deb yuritiladi. O'qituvchilik kasbi eng qadimiy kasblardan xisoblanib pedagogik mahoratning paydo bo'lishi xam kishilik jamiyatida o'qitishning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan tajribalar: yurish-turish, xatti-xarakatlarining, mexnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini aqliy, axloqiy, iloxiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish: yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish, u tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish. Ularni xayotga, mexnat faoliyatiga tayyorlash extiyoji natijasida qadim zamonlarda yoki ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi. Iloxiy ta'limotga ko'ra tarbiya bu -o'zligin anglash, o'z -o'zini boshqarish, tevarak atrofdagi olamni bilib olish yer yuzida va jamiyatdada yashash uchun xozirlik ko'rish. Tangri dargoxiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bulgach, diniy tarbiya qutlug' kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Mashxur chex pedagogi Ya.A.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar xam o'sha davrda bolalarga xar xil tarbiya berishgan, bu albatta ota-onalarni talablaridan kelib chiqilgan. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ba'zi ota-onalarda tajriba yetarli bo'lgan bo'lsa-da, ko'pchiliklarida yetarli bilim, ko'nikma, malaka yetishmagan. Ba'zan ota-onalar farzandlari tarbiyasi uchun kerakli vaqt ajratmaganlar.²¹³ Shu sababdan ko'p oilalar, o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli, tajribali maxsus kishilarga berib o'qitishgan. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagoglar deb atashganlar. Dastlabki ta'lim-tarbiya berishda ancha

¹³ Yan.A.Komenskiy«Buyuk didaktika»

murakkab vaziyatlarda bo‘lishgan. Buning asosiy sababi ta’lim -tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarda pedagogik mahorat yetishmagan.

Bugungi kunda esa tajribali o‘qimishli kadrlar yetarlicha bo‘lgan etabda biz endi ta’lim –tarbiya jarayonini mazmunli va bolalarni bilimli qilib tarbiyalash masalalari ustida bosh qotirmoqdamiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyatning qanday olib borilishi qanday tashkil etilishi xususida juda ko‘p qo‘llanmalar ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan .Bulardan biri ”Ilk qadam “davlat dasturini misol qilib aytish mumkin. Bu dastur maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy hujati sifatidir. Unda bir qator masalalar ko‘rsatib berilgan .

-Ota –onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrining inobatga olinishi .

- Ilk rivojlanish masalarida ota –onalarga bilim berish
- ota onalarning o‘quv tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga jalb etish
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etishi borasidagi tashabbusini qo‘llab –quvvatlash.

Ota-onalar bilan MTT xodimlari birgalikda faoliyatni tashkil etsish va uning mazmun mohiyati Mtt dagi sharoitlarga bog‘liqdir. Birgalikdagi faoliyati krakli darajada amalga oshirilayotgan joyda o‘zaro yordam bir-birini tushunish ,topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar bilan faoliyat rashkil etish – tarbiyachining ,bolalarning pisixologik salomatligini saqlashga qaratilgan eng muhim jihatlardan biri bo‘lib ,u bolaning atrifidagi umumiy “ta’lim” maydonini shakllantirish ,kattalar tas’irini muvofiqlashtishni taminlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilot-birinchi ijtimoiy institut, ota-onalar kiradigan birinchi o‘quv tashkiloti ularning pedagogik ta’limi boshlanadigan dargoh hisoblanadi .Oila va bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi tushunmovchilik bolaga ko‘proq bog‘liq .Bizga ma’lumki ko‘pgina ota-onalar faqat bolaning ovqatlari bilan qiziqishadi ,ular bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari bu ota-onalar ish vaqtida faqat bolalarni boqadigan joy deb qarashadi.²Shu sababli biz tarbiyachilar ko‘pincha ota-onalar bilan aloqa qilishda katta qiyinchiliklarga duch kelamiz .

Yuqorida keltirilgan muamolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim .

-Ota-onalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun qulay sharoit yaratish .

-Ota-onalarning o‘quv va tarbiyaviy ko‘nikmalarini tiklash va boyitish .

-Bolalarni oilada va MTT da tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha yagona yondashuvni amalga oshirish .

Bugungi kunda ,yangi normative va mazmunli yondashuvlarni amalga oshirish sharoitida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ochiqlik yaqin hamkorlik va o‘zaro aloqalarni nazarda tutadigan maqsadlar qo‘yiladi.

Ota-onalar nafaqat tashqi kuzatuvchilar,balki ta‘lim jarayoning faol ishtirokchilari hamdir.Maktabgacha ta‘lim tashkilotining ota-onalar bilan o‘zaro aloqasi bu –har bir tarbiyalanuvchining oilasi bilan hamkorlikda aloqalarini o‘rnatish ,bolalarni rivojlantirish va o‘qitish uchun harakatlarni birlashtirish ;o‘zaro tushunish manfaatlarining birlashishi ,oz’aro qo‘llanb quvvatlash ,ota-onalarning ko‘nikmalarini faollashtirish va boyitish muhitini yaratish,ularning o‘zlarining pedagogik imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlash .Ochiqlikni o‘rnatish jarayonida maktabgacha ta‘lim tashkilotining asosiy ijtimoiy buyurtmachilari bo‘lgan ota-onalar katta ro‘l ega bo‘lgan kichik maktab hisoblanadi .Ularning ta‘limiy funksiyalari har xil ,ammo ularning o‘zaro ta’siri bola rivojlanishi uchun har tomonlama zarur.

Oila tarbiyasi bola uchun ustuvor ahamiyatga ega,lekin ota-onalar har doim ham to‘g‘ri harakat qilishmaydi o‘z hatti harakatlarini nazoratga olishmaydi,shu sababdan oil aba maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining yangi aloqa nuqtalarini topishdir.Bu munosabatlarning zamonaviy ko‘rinishi “Hamkorlik” “O‘zaro tasr” kabi tushunchalar bilan uzviy aloqadordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *“Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan 802-sonli davlat ta’lim standarti ” 2021-yil*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyrug‘ining 1-ilovasi*
3. *Qodirova Fotima “Maktabgacha pedagogika. “ T.: Tafakkur bo‘stoni-2019*
4. *Qurbonov M“ Ijtimoiy pedogogika ” Nizomiy nomidagi TDPU-2017*

INGLIZ TILI DARSLARIDA REPRODUKTIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLAR

Toshova Gulnoza Tojinorovna

Termiz davlat Pedagogika instituti, Xorijiy til va
adabiyot yo'nalishi 2 bosqich magistranti,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz zamonaviy innovatsion texnologiyalardan, samarali pedagogik usullardan, darslarda, chet tili darslarida va mustaqil ta'lim jarayonida ulardan foydalanish usullarini o'rganishga va ma'lumot berishga harakat qildik. Maqolada lug'at, grammatika, og'zaki nutq qobiliyatlari va boshqalarni rivojlantirish uchun foydali bo'lgan usullarning qisqacha ro'yxati keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** zamonaviy innovatsion texnologiyalar, til kompetensiyasini shakllantirish, og'zaki nutq va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.*

Hozirgi kunda chet tillari kasbiy tayyorgarlikning zaruriy tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ko'p sohalarda xorijlik hamkorlar bilan aloqa o'rnatish, o'z g'oyalarini, fikrlarini qanchalik ravon va to'g'ri tushuntirishni bilish zarurati tug'iladi. O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish maqsadida har yili ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun [1], "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [2], 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaror [4] o'qituvchilar uchun muhim hujjatlardir chet tillari.

Shularni hisobga olgan holda o'qituvchi va talabalar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullarini yaxshi bilishlari kerak. Bundan tashqari, ular o'z maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlashlari mumkin.

Bizning maqolamizning vazifalari:

- og‘zaki nutqni o‘rgatishning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- og‘zaki nutqni o‘rgatishning zamonaviy usullarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- og‘zaki nutqni o‘rgatishning to‘g‘ri va innovatsion usullarini o‘rganish.

20-asrning oxiriga kelib pedagogika chet tillarini o‘qitishda, ayniqsa og‘zaki nutqni o‘rgatishda juda ko‘p qiziqarli va samarali metod va yondashuvlarni to‘pladi. Olimlar chet tillarini o‘qitish metodikasini boyitdilar, shuning uchun u murakkab va ko‘p qirrali fanga aylandi.

Kitoblar orqali o‘qitishning yuqori texnologiyali odatiy usullarining rivojlanishi bilan shunga o‘xshash grammatika mashqlari, matnlarni o‘qish va tarjima qilish ikkinchi o‘rinda turadi. An’anaviy grammatika-tarjima usullari til ko‘nikmalarini shakllantirmaydi. Talabalar turli matnlarni yuqori darajada o‘qish va tarjima qilish qobiliyatiga ega, lekin u chet tilidagi bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olmaydi. Kommunikativ yondashuv nutq va yozish qobiliyatlari shaklida grammatik bilimlardan foydalanishga imkon beradi.

O‘qituvchilar an’anaviy grammatika va tarjima mashg‘ulotlaridan uzoqlashmoqda. Ular turli xil texnikalardan foydalanadilar va kerakli natijaga erishish uchun ularni bir-biri bilan birlashtiradilar. Talabalar nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun grammatik bilimlardan foydalanadilar. Mashqlar tinglash, o‘qish, yozish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Muloqot akti chet tillarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan muloqot faoliyatining asosiy birligidir. Talaba og‘zaki nutqni shakllantirish va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishga qodir bo‘lishi kerak. Muayyan mashqlar yordamida bajariladigan og‘zaki nutqni rivojlantirish.

E.I. Passov va boshqa olimlar shartli nutq mashqlarining maqsadga muvofiqligi haqida gapirdilar [1]. Ularni bir nechta kichik turlarga bo‘lish mumkin. Imitativ (model bo‘yicha fikrni ifodalash). O‘zgartirish (ma’no doirasida tegishli gapni tanlash).

Transformatsiya (boshqa ma’lumotlarni uzatish uchun replikalarni o‘zgartirish). O‘z-o‘zini reproduktiv (talaba mustaqil ravishda bayonotlar uchun takliflar beradi).

Olimlarning fikricha, eng muhim maqsadlardan biri ikkinchi darajali til shaxsini shakllantirishdir.

Talabalar/talabalar yangi tilni tubdan yangi darajaga olib chiqishlari kerak. Buni qilish uchunmi? Idrok etishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun uni ona tilidan ajratish muhimdir. Talabalar asta-sekin o'z qobiliyatlarini rivojlantirishning turli bosqichlaridan o'tadilar. Kelajakda ular olingan ko'nikmalardan foydalanib, mustaqil ravishda muloqot qilishlari kerak. Mashqlar tizimi nutqning yuqori darajasiga erishishga yordam beradi.

Ular mashg'ulotlarning turli bosqichlarida qo'llanilishi kerak. Pedagogika o'quvchi shunchaki ma'lumotni idrok etuvchi passiv ob'ekt emas, balki jarayonning to'liq ishtirokchisi bo'lishi kerak degan xulosaga keldi. Muammoli o'rganish bugungi kunda chet tillarini o'qitishning innovatsion usullarini anglatadi. Bu o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va fikrlash qobiliyati uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarda muammoli yondashuvdan foydalanadigan o'qituvchilar guruhdagi talabalarning mustaqil ishlarini tizimli rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak. Asosiy maqsad ularning o'zlari bilim olishga yordam berishdir.

Xulosa

Shunday qilib, Z avlod o'quvchilari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonini modernizatsiya qilishning yangi usullarini izlashda, Internet-memlar muhim motivatsion salohiyatga ega bo'lgan tegishli materialdir. Turli mavzulardagi memlarning katta tanlovi, jonli vizual tasvirning istehzoli mazmun bilan uyg'unligi va memlarning dolzarbligi ushbu kreollashtirilgan matnlardan o'quvchilarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot davomida texnik universitet talabasining chet tilini o'rganish jarayoniga bo'lgan motivatsiyasining tarkibiy qismlari aniqlandi va ularning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish usuli sifatida chet tilidagi memlar bilan ishlashni tashkil etish modeli taqdim etildi. Taklif etilayotgan model doirasida

talabalarning memlar bilan ishlash algoritmi, ya'ni ushbu ishning samaradorligini ta'minlaydigan uslubiy apparat aniqlandi.

"Kasbiy faoliyatda chet tili" dasturiga muvofiq talabalarning memlar bilan ishini tashkil etishning mumkin bo'lgan mazmunli yo'nalishlari aniqlandi, talabalarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining rivojlanishini aniqlash uchun mezon-baholash apparati taqdim etildi. Ushbu modelni amalga oshirish imkoniyatlari ma'lum bir mem bilan ishlash misolida keltirilgan. O'tkazilgan uslubiy tajriba bo'lajak muhandislarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda.

Til o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish texnik universitet talabalari uchun o'quv jarayonini tashkil etishning muhim omili bo'lib, talabalarning til hodisalarini chuqur anglashlarini shart qilib, ularning mustaqil ishlashga intilishlarini ochib beradi. Memlardan foydalangan holda ingliz tilini o'rganish jarayonini tashkil etish usullari tilni o'rganish jarayoniga nisbatan kasbiy yo'naltirilgan va kommunikativ-shaxsiy motivlarni shakllantirishda o'z samaradorligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. *Passov E.I. Communicative method of teaching a foreign language. Moscow Prosveshchenie, 1985.*

2. *The Law "About Education" of the Republic of Uzbekistan // Young generation – the foundation of development of Uzbekistan. Tashkent. Shark, 1997.*

3. *The national training of personnel program of the Republic Uzbekistan. // Young generation – the foundation of development of Uzbekistan. Tashkent. Shark, 1997.*

4. *The Republic of Uzbekistan Decree PQ –1875. December 10, 2012. About further improving the system of learning languages.*

TRIGONOMETRIYA TARIXI HAQIDA

Omonov Baxtiyor Yusupovich

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

matematika fani o'qituvchisi

(O'zbekiston)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada trigonometriyaning shakllanishida qadimda olimlar qanday ilmiy izlanishlar olib borishgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *trigonometriya, uchburchak, diametr, segment, sinus, kosinus, radian.*

ANNOTATION

This article talks about how ancient scientists conducted scientific research in the formation of trigonometry.

Keywords: *trigonometry, triangle, diameter, segment, sine, cosine, radian.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о том, как древние ученые проводили научные исследования при формировании тригонометрии.

Ключевые слова: *тригонометрия, треугольник, диаметр, отрезок, синус, косинус, радиан.*

“Trigonometriya” atamasi grekcha “trigonon” — uchburchak va “metrio” — o'lchayman so'zlaridan olinib, birgalikda “Uchburchakni o'lchash” ma'nosini anglatadi.

Burchaklarni o'lchashga bo'lgan talab masofani o'lchash ehtiyoji kabi juda qadimdan paydo bo'lgan. Trigonometriyaning rivojlanish omillaridan biri vaqtni aniqlash, ochiq dengizdagi kemaning yoki sahrodagi karvonning o'rnini aniqlash zaruriyatidan kelib chiqqan.

Uchburchakning tomonlari va burchaklari orasidagi bog'lanishni o'rganib, qadimgi odamlar uchburchakning turli elementlarini hisoblash usullarini topishdi.

Qadimgi Vavilon olimlari trigonometriyadan ba'zi bilimlarga ega bo'lganlar. Bunga vavilonliklarning Quyosh va Oy tutilishlarini bilishlari dalolat beradi. Qadimgi Vavilonning (miloddan 2 ming yil avval) loy jadvalchalarining birida bir masala yechiladi: unda doiraning ma'lum diametri va segmentning balandligiga ko'ra vatarning uzunligi hisoblanadi, bu esa sinus bilan kosinus orasida bog'lanish o'rnatilishiga mos keladi.

Qadimgi grek olimlari to'g'ri burchakli uchburchaklarni yechish usullarini bilishgan. Astronom va matematik Gipparx (milodgacha II asrda) vatarlar jadvalini — birinchi trigonometrik jadvallarni tuzdi.

Trigonometrik jadvallarni tuzishdagi buyuk muvaffaqiyatlardan biri K. Rolemeyning (II asr) "Almagest" asari bo'ldi. Bu asarda astronomiya va unga yaqin bo'lgan fanlardan o'sha davrda ma'lum bo'lgan turli ma'lumotlar to'plangan va umumlashtirilgan. Shu yerning o'zida 0 dan 180° gacha yarim gradus oraliq oltinlik sanoq sistemasida tuzilgan vatarlar jadvali keltirilgan. Aslida vatarlar jadvali 0 dan 90 gradusgacha sinuslar jadvalining o'zidir. Ptolemey, shuningdek, zamonaviy belgilashlarda quyidagicha ko'rinishda bo'lgan formulalarni ham keltirib chiqaradi:

$$\sin^2 a + \cos^2 a = 1, \sin(a - \beta) = \sin a \cdot \cos \beta - \cos a \cdot \sin \beta, \sin^2 \frac{\alpha}{2} = \frac{1 - \cos \alpha}{2}$$

Bu ma'lumotlardan, asosan, amaliy astronomiya masalalarini hal qilish uchun, borib bo'lmaydigan joylarga masofalarni aniqlash uchun foydalanilar edi.

Trigonometriyani undan keyin Hindiston, Yaqin va O'rta Sharq olimlari rivojlantirishdi. Ular sinus, kosinus, tangens, kotangensni kiritishdi, burchakning radian o'lchoviga asos solishdi.

O‘zbek xalqining ajoyib farzandi, mashhur qomusiy olim Beruniy o‘rta asrlarning azob-uqubatlari va turli qiyinchiliklariga qaramay, butun umrini fan va madaniyat taraqqiyoti yo‘lida sarfladi. Beruniy fan xazinasini shunday bebaho javohirlar bilan to‘ldirdiki, butun insoniyat bu bilan cheksiz faxrlanadi.

Beruniyning matematik ijodini baholashda “Qonuni Mas’udiy” asari, ayniqsa, uning trigonometriyaga bag‘ishlangan uchinchi maqolasi diqqatga sazovordir.

Beruniy bu asarida o‘tmishdoshlari Muhammad ibn Jobir al-Battoniy (929), Abul Vafo al-Buzjoniy (940-998), Abu Nasr ibn Iroq va boshqalar hosil qilgan natijalarni o‘z kuzatishlari bilan to‘ldirdi va umumlashtirdi. U avvalo, astronomiya uchun muhim vosita deb hisoblangan tekis va sferik trigonometriyani mustaqil fan sifatida bayon qildi.

Ilk maqola 10 ta bobdan iborat bo‘lib, 1 - bobda vatarlar yasash orqali ichki chizilgan muntazam uchburchak va o‘nburchakning tomonlarini hisoblash masalalari yechilgan. 2- bobda ikki burchak yig‘indisi va ayirmasining sinusi, ikkilangan va yarim burchak sinusini ifodalovchi teoremlar berilgan. 3-bobda muntazam ichki chizilgan to‘qqizburchakning tomonini yasash masalasi qo‘yilgan, bu masala uchinchi darajali tenglamalarni yechish orqali va maxsus hisoblash jarayoni yordamida hal etilgan. 4- bobda burchakni teng uchga bo‘lish masalasi bo‘lib, bu masalani yechish uchun Arximed zamonidan beri ba’zi matematiklar tomonidan berilgan 12 xil usul bayon etiladi. 5- bobda o‘tgan boblar natijalariga asoslanib, aylana uzunligining diametriga nisbati hisoblanadi. Bu qiymat $\pi \approx 3,1417\dots$ ga teng. 6-bobda sinuslar jadvali berilgan. 7-bobda esa shu sinuslar jadvalidan foydalanish qoidalari beriladi. 8-bobda esa tangenslar jadvali va undan foydalanish, tekislik trigonometriyasidagi sinuslar teoremasining isboti berilgan. 9-10-boblar sferik trigonometriyaga bag‘ishlangan.

Beruniy “Qonuni Mas’udiy” asarining V maqolasida Yer shari meridianining bir gradusli yoyi uzunligini aniqlashni ko‘rsatadi. Beruniy bu maqolada yer shari radiusini ham juda oddiy usul bilan aniqlaydi.

Beruniy 1029 — 1034-yillar orasida yozgan “Kitob at-tafhim” asariga geometriya va arifmetika, astronomiya va geodeziyaga doir bo‘limlarni kiritadi. Uning bu asari

boshqa asarlaridan farqli o'laroq, savol-javob tarzida tuzilgan hamda u bizgacha arabcha va forscha nusxalarda yetib kelgan.

Jahon fani va madaniyati tarixida o'zlarining juda ko'p boy ijodlari bilan nom qoldirgan olimlar orasida o'zbek xalqining ko'p vakillari borki, bular orasida Ulug'bek va uning ilmiy maktabi vakillari alohida o'rin egallaydi.

Ulug'bek maktabida mashhur olimlar Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid-al-Koshiy va Ali Qushchi, keyinchalik bu akademiyada Hasan Chalabiy, Muhiddin al-Koshiy, Mansur al-Koshiy va boshqa olimlar ishlagan.

Ulug'bek maktabida erishilgan ilmiy tadqiqotlarning yirigi yulduzlar va sayyoralar harakatiga bag'ishlangan "Yangi astronomik jadvallar" nomli Ulug'bek qalamiga mansub ilmiy asardir. Bu asar "Ulug'bek ziji" yoki "Ziji Ko'ragoniy" nomlari bilan mashhur. ("Zij" forscha "Zik" so'zidan olingan va u "Jadval" degan ma'noni bildiradi.) "Ulug'bek ziji" avval fors tilida yozilgan, keyin esa uni G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy arab tiliga tarjima qilgan.

"Ulug'bek ziji" kirish, ya'ni nazariy qism, rasadxonada o'tkazilgan kuzatishlar asosida tuzilgan jadvallardan iborat.

"Zij" ning birinchi kitobi astronomiyaning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, kalendar (taqvim) tuzish bilan bog'liq bo'lgan masalalar, arablar, yunonlar, eron, xitoy va uyg'ur sanalari, davrlar, yil va oylarning bir-biriga munosabatlari, Quyosh va Oyning harakati bayon qilingan. Demak, bu kitobda uchta asosiy miqdorlardan biri, vaqtni o'lchash muammosi ilmiy hal qilingan.

"Zij"ning ikkinchi kitobi matematika va sferik astronomiyaga bag'ishlangan. Uchinchi kitob trigonometrik jadvallarga bag'ishlangan. Ular o'nta o'nli xona aniqligida hisoblangan. Bu XV asr uchun juda katta aniqlik hisoblanadi. Uchinchi kitobning amaliy astronomiyaga tegishli qismida ekliptikaning ekvatorga og'maligi, osmon yoritgichlarining koordinatalarini aniqlash, yulduzlar va sayyoralar orasidagi masofalarni aniqlash kabi masalalar qaraladi.

Ekliptika tekisligining ekvatorga qiyaligini Ulug‘bek $23^{\circ}30'17''$ bo‘lishini hisoblab topgan, nazariy hisoblashlar bo‘yicha bu burchak $23^{\circ}30'49''$ bo‘lishi kerak. Bu yerda Ulug‘bek juda arzimas darajadagi xatoga, atigi $0'32''$ ga yo‘l qo‘ygan.

Ulug‘bek yulduz yilini 365 kun 6 soat 10 minut 8 sekund deb hisoblagan, bu hisoblashda uning xatosi 1 minut-u, 2 sekund bo‘lgan.

Ushbu manbalar orqali nafaqat trigonometriyaning ilk shakllanish davri balki algebra fanining mukammal darajada rivojlanish davrini ham kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Trigonometriya>
2. A.Narmonov, N.Narmuratov. *Matematika tarixi*.

INGLIZ VA O‘ZBEK XALQLARIDA NIKOH BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TADQIQI

Qahhorova Mavluda Mukarramovna

Farg‘ona Davlat Universiteti nemis tili kafedrası mudiri

Abdiolimova Qizlarxon Subhonali qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti lingvistika (ingliz tili)

yo‘nalishi 2-kurs magistr talabasi

E-mail: abdiolimovaq@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalqlarida nikoh bilan bog‘liq leksik birliklarning o‘zaro o‘xshash jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: etnografiya, etnolingvistika, sheva so‘zlari, madaniy taraqqiyot, to‘y an‘analari etnografiyasi.

KIRISH. Ma‘lumki, til har bir xalqning milliy o‘zligini namoyon qiluvchi, an‘ana va urf -odatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Tilshunos N.Kurbanazarova o‘zining "Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantiktadqiqi va lingvomadaniy tadqiqi" deb nomlangan dissertatsiyasida quyidagilarni bildirib o‘tadi: "Bugungi kungacha tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ikki va ko‘p tilli lug‘ atlar, shuningdek, izohli, etimologik va terminologik lug‘atlarning yuzaga kelganligi, o‘zbek tili shevalarining leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarining atroflicha o‘rganilganligi, o‘zbek xalq shevalariga oid etnografik-dialektal leksikaning areal-hududiy xususiyatlarini mukammal talqin etib, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tahlil qilishga asosdir. Chunki, dialektal leksika tarkibida xalq, urug‘ va qabilalarning turmush tarzi ko‘rinishlarini ifodalovchi etnografik leksikaning o‘ziga xos o‘rni,

mavqei, mohiyati va shu bilan birga ijtimoiy, tahlimiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ham bor. Etnografik leksika kattta hajmdagi leksik birliklarni o'zida jamlagan bo'lib, faqat uning bir bo'lagi - to'y marosimlari etnografizmlari hisoblanadi". Muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlar shu xalqning etnomadaniyatini tashkil qiladi. Maqolada ingliz va o'zbek nikoh to'ylari bilan bog'liq bir nechta marosimlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ular jarayonida qo'llaniladigan leksemalardan namunalar keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Hozirgi zamon to'y marosimlari nomlari bilan bog'liq tadqiqotlar A.Jo'raboyev Sh.Nurillayeva H.Ismoilov, Z.H.Orifxonova], M.Qaxarovalar tomonidan amalga oshirilgan. Sho'rolar davrida nikoh to'yi marosimlarida yangi urf-odatlarining paydo bo'lishi O.A.Suxareva, M.A.Bikjanova, N.P.Lobachyova, L.F.Monogarova, T.X.Toshboyeva va M.B.Savurovlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Tadqiqotchi Z.Alimova ham o'z ilmiy ishida forsha-tojikcha to'y marosimlari haqida to'xtalib o'tgan. Etnolog olimlarning qayd etishicha, kishilar doimiy ravishda o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odat va ma'naviyatini tushunib olishga ehtiyoj sezgan. Bu ehtiyoj natijasida turli sohalar, fanlar vujudga kelgan. Lingvistikaning maxsus sohasi bo'lgan etnolingvistikaning maydonga kelishida ham rasm-rusumlari, urf-odatlar, an'analari bilan bir-biridan farqlanuvchi xalqlar va Bo'riyev ularning tillari asos bo'lgan. Chunki avval har qanday etnik omil tilda o'z ifodasini topadi. Til muayyan tilda so'zlashuvchilarning turmush tarzini, mahnaviyatini, urf-odatlarini ifodalovchi Подобрать и оформить по ГОСТ список литературы vositadir. Chunonchi, har bir tilda shu tilda muloqot qiluvchilarning etnografik olamini ifodalovchi maxsus so'zlar bo'lib, ular etnografik leksikani tashkil qiladi. A.Jo'raboyev Andijon guruh shevalari materiallari asosida to'y marosimlari nomlarini ifodalovchi so'zlarni tahlil qilar ekan, tilshunoslikning muhim nazariy va amaliy masalalarini ochib berishda etnografik terminologiyaning muhim o'rnini borligini qayd etadi Dissertant to'y marosimlari nomlari, ularning qo'llanilishi va ma'nolari xususida fikr yuritir ekan, 120 ta xatna, 130 dan ziyod nikoh to'yi bilan bog'liq bo'lgan nomlarni o'zbek tilining boshqa

shevalari bilan qardosh turkiy, tojik va boshqa tillar bilan solishtirib, qiyoslab o'rganishga harakat qilgan

NATIJALAR VA MUHOKAMA To'y har bir xalq madaniyatida o'ziga xos tarzda nishonlanadi va turli xalqlar tomonidan bir-biriga o'xshash bo'lmagan urf-odatlar, ramzlar va so'zlar orqali ifoda etiladi. To'y - o'zbek tilida faqatgina ijobiy ma'noda qo'llaniladigan leksema bo'lib, uning barcha ko'rinishlari, xususan, "tug'ilish to'yi", "beshik to'yi", "chilla to'yi", "sunnat to'yi", "muchal to'yi", "nikoh to'yi", "payg'ambar to'y", "hoji to'y", "uy to'y", "moshina to'y" kabilar xursandchilik bilan elga osh berib, o'yin-kulgu, to'kin-sochinlik bilan nishonlanadi [9,45]. Nikoy to'yi bilan bog'liq leksemalarga quyidagilarni kititish va mazkur ta'riflarni ko'rish mumkin: Oq libos. Qadim- qadimdan britaniyalik kelinlar to'y kuni o'z bisotlaridagi eng yaxshi liboslarini kiyganlar. Ko'p asrlar davomida ingliz madaniyatida kelinlar uchun rangning ahamiyati bo'lmagan, hatto aksar xalqlarda salbiy taassurot qoldiruvchi qora rangli libos ham nikoh to'ylarida kiyilavergan. Biroq XIX asrda qirolicha Viktoriya shahzoda Albert bilan nikoh to'yida oppoq va uzun libosda namoyon bo'lgach bu rang inglizlarda o'zgacha taassurot qoldirdi va shundan beri nikoh oqshomi oppoq ko'ylak kiyish urfga kirdi. Bu odat hozirgacha hashamat va ulug'vorlik ramzi sifatida kelinlarga zeb bag'ishlaydi. Kelinni uzatish. To'y kuni kelinning otasi uning qo'llaridan tutib kuyovga uzatadi. Buning ma'nosi : "Qiz otaning mulki edi va endi u kuyovga sotildi." Nikoh uzugi. Ingliz madaniyatida to'y kuni kelin -kuyov bir -birlarining barmoqlariga nikoh uzugini taqadilar va to'y qasamyodini qiladilar. Nikoh uzugi mangu muhabbat ramzi sifatida taqiladi. Kelin - kuyov bir -birlarining o'ng qo'llaridan ushlab quyidagi nikoh qasamyodini aytadilar: I, (name), take you, (name) To be my wife/husband, To have and to hold From this day forward; For better, foe worse, For richer, for poorer, In sickness and in health, To love and to cherish, Till death us do part, According to God's holy law. In the presence of God I make this vow. Подобрать и оформить по ГОСТ список литературы Ma'nosi: men (ism) seni (ism) rafiqam/ erim qilib olar ekanman, bugundan boshlab yaxshida ham, yomonda ham, boylikda ham, nochorlikda ham, sog'likda ham, xastalikda ham to o'lim bizni

ajratguncha sevishga va g'amxo'rlik qilishga Xudoning muqaddas qonuniga ko'ra Xudo oldida ont ichaman. Guruch sepish. To'y kuni kelin -kuyov boshidan guruch yoki bug'doy donlari sochiladi va shunday tilak qilinadi : "May your life abundance and wealthy". Ma'nosi : "Hayotingiz mo'l-ko'l va farovon bo'lsin". To'y torti. Necha -necha asrlar davomida tort Britaniya to'ylarida an'anaviy va sevimli ne'matlar sifatida qadrlanib kelinadi. Boshlovchi : " So I'd like (bride) and ... (groom) to walk around to the front of the bridal table to perform their first duty as husband and wife"- deb kelin va kuyovni chaqiradi. O'zbek tilida ma'nosi: "Shunday qilib ... (kelin) va .(kuyov) ni ularning er va xotin sifatidagi birinchi burchlarini bajarish uchun nikoh stoli qarshisiga kelishlarini so'rayman". Kelin-kuyov tort oldida birgalikda bitta pichoqni bir qo'llari bilan ushlab, ikkinchi qo'llari bilan bir-birlarining qo'llarini tutishga harakat qilishadi, ya'ni tortni kesayotganda kimning qo'li eng tepada tursa, oiladagi ustuvorlik u tomonda bo'ladi, degan qarash mavjud. Gul uloqtirish. XV asrda Britaniyada to'y so'nggida bir g'ayrioddiy odat o'tkazilardi. To'yga tashrif buyurgan mehmonlar kelinning libosi, gullari va hatto sochlaridan yulib olishga harakat qilardilar. Bu orqali kelinning baxti va omadi ularga ham yuqadi deb hisoblashgan. Keyinchalik bu an'ana madaniylashdi. Bunda kelin mehmonlarga orqa o'girib qo'lidagi guldastasini ularga qarata otadi, bu gulni chaqqonlik bilan ilib olgan mehmonga esa (ular odatda hali turmushga chiqmagan qizlar bo'lishadi) albatta baxt kulib boqadi deya ishonishadi. Ostonadan kelinni ko'tarib kirish. Bu udum qadimdan kelinning ilk oqshomdagi hayajonini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi. Shuningdek, uning iffatiga hurmat sifatida ham qaraladi. O'zbek xalqida ham to'y kunlari maxsus kiyim -boshlar kiyishgan. Bu kiyimlar joylashgan vohasiga qarab bir-biridan farq qilgan. Masalan , Samarqand, Buxoroniki bir toifa bo'lsa, Surxon va Qashqa vohasiniki ikkinchi toifa, Farg'onaniki o'zi bo'lak bo'lsa, xorazmlik kelin-kuyovning kiyim-boshi tamoman boshqacha bo'lgan. Qo'lushtalar. Kelin -kuyovning butun umrga bog'lanishi, bir-biriga yelkadosh bo'lib , yaxshi-yomon, og'ir -yengil kunlarida , sog'ligida yoki bemorligida bir- birini tashlab ketmaslik ramzi sifatida ushbu marosim o'tkaziladi. Urf-odatlarni bajarishda bosh-qosh bo'layotgan yoshi ulug' ayol bir qo'lga kelinning, bir

qo'liga kuyovning qo'lini ushlab, ikkalasani birlashtiradi, ya'ni qo'llarini ushlattiradi. 1 So'ngra quyidagicha duo qiladi: "Umrlaringning oxirigacha birga bo'linglar". "Ushlagan qo'llaring, birlashgan yo'llaring hech qachon ayrilmasin"; "Bir-birlaringga sadoqatli bo'linglar". An'anaga ko'ra, kelin ibo-hayo ramzi sifatida qo'llarini kuyovdan tortib olmoqchi bo'ladi, biroq kuyov uning qo'lini qo'yib yubormaydi. Atrofdagilar esa kuyovni qo'llab quvvatlaydilar: "Kuyov, kuchli bo'ling!" "Kuyov, kuchingni ko'rsat!" Oyoqbosar. Kuyov kelinning uyidan chiqib ketayotganida ushbu marosim o'tkaziladi. Bunda qarindoshlar, kuyovjo'ralar va kelinning dugonalari ishtirokida kuyov kelinning oyog'ini bosadi. Buning mazmuni shuki, birinchi bo'lib oyoqni bosgan kishi oilada yetakchi bo'ladi. Подобрать и оформить по ГОСТ список литературы. Lekin ko'p hollarda kelin kuyovga o'z xohishi bilan oyog'ini bostiradi. Bu uning dini va oilada ko'rgan tarbiyasi ta'siri o'laroq, erkakning o'zidan bir pog'ona yuqorida turishi va oilada erkakning yetakchiligini tan olishi bilan xarakterlanadi. Guruch berish. Kuyov kelinni uyidan olib ketayotganda kelinning yaqin qarindoshlari bir kosada guruch va loviyani aralashtirib ularga beradi. Bu odat ikki yosh ko'p farzandli bo'lib, farovon yashashsin degan niyatda qilinadi. "Baxtli- saodatli bo'linglar"; "Mana shu guruch va loviyaday o'zlaringdan ko'payinglar, o'g'il- qizli bo'linglar"; "Serdavlat va serfarzand bo'linglar" singari iboralar bilan duo qilinadi.

XULOSA

Xalq og'zaki ijodi, tarixiy kitoblar va ajdodlardan qolgan yodgorliklarda qayd etilgan urf -odatlar xalqlarning fikrlashini, ular uchun nima to'g'riligini va ezgulik haqidagi tushunchalarini ifodalaydi. Ular xalqlarning tarixi va diniy qarashlari bilan bog'liq. Shunday ekan, lingvomadaniy tushunchalar ham turlichadir. Biroq yuqorida ko'rganlarimiz- ingliz va o'zbek xalqlarida nikoh to'y marosimi bilan bog'liq udumlar va odatlar bir -biriga mazmun jihatdan o'xshab ketadi. Va eng asosiysi, ularning zamirida kelin -kuyovning oilaviy hayotlariga mustahkam poydevor qo'yish va shakllangan yangi oilada an'anaviy udumlarning saqlanishi kabi ezgu maqsadlar yotadi.

REFERENCES

1. Alimova, Z. V. (2021). *ABOUT COMMON WORDS IN UZBEK LANGUAGES, THEIR SEMANTICS. Theoretical & Applied Science, (5), 101-104.*
2. Alimova, Z. V. (2019). *BORROWINGS-LINGUISTIC PHENOMENA. Theoretical & Applied Science, (4), 367-370.*
3. Alimova, Z. V. (2021). *The role of borrowings in the growth of language vocabulary. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 261-267.*
4. Арифханова З.Х. *Современная жизнь традиционной махаллы Ташкента. - Т.: Узбекистан 2020.*
5. Asqarov M. *To 'y : kecha , bugun, ertaga: etnografik tahlil. 1 minute read uz.team. February13, 2019*
6. Буриев О ва бош;. *Узбек оиласи тарихидан. - Т.:Ук;итувчи, 1995.*
7. Джурабаев А. *Названия свадебных церемоний в Узбекском языка (На материалах андижанской группы говоров). Дисс... канд. филол. наук. - Ташкент, 1971. - С. 9.*
8. Исмоилов Х. *Узбек туйлари. - Т.: Узбекистан, 1992;*

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА КОММУНИКАТИВ ЁНДАШУВ

Муртозаева Нилуфар Жуманазаровна

Бухоро Давлат Университети

Қиёсий тилшунослик, лингвистик таржимашунослик факултети

2-курс магистратура талабаси

E-mail: nilushka_9222@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Бугунги кунда замонавий жамиятлар ҳаётнинг ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий жиҳатларига таъсир кўрсатадиган тез ва чуқур ўзгаришлар ва кескинликларга дуч келмоқдалар. Таълимнинг роли ҳам минг йиллик даврда ўзгара бошлади. Дарҳақиқат, 21-аср таълими талабалар ўқув муҳитида ривожланиши керак бўлган турли хил ваколатларни ҳисобга олган ҳолда ўқув режаси тузилишини босқичма-босқич ўзгартиришни талаб қилади. Замонавий билимга асосланган тил таълими, талабалар олиши керак бўлган кўникма ва малакалар турлари ўтмишда ишлатилганидан фарқ қилади. Коммуникатив компетенция тил таълимининг энг муҳим жиҳатларидан биридир. Инглиз тилини ўқитишда коммуникатив ёндашувни жорий этиши ўқитилаётган тил кўникмаларининг мумкин бўлишига ёрдам беради ўз эҳтиёжлари, қизиқишлари ва имкониятларидан келиб чиқиб, ўз мамлакатидан ташқарида фойдаланиши.

Калит сўзлар: *коммуникатив методология, алоқа, тил ўрганиши, функционалик, амалий билим, коммуникатив компетенция, коммуникатив ёндашув, ижтимоий тил, вазифаларга асосланган тил ўрганиши, матнга асосланган ўқитиши.*

КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Муртозаева Нилуфар Джуманазаровна

Бухарский Государственный Университет

Факультет сравнительного языкознания, лингвистического перевода

Студент 2-курса магистратуры

E-mail: nilushka_9222@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Сегодня современные общества все чаще сталкиваются с быстрыми и глубокими изменениями и напряженностью, которые затрагивают социальные, экономические и политические аспекты жизни. Роль образования также стала меняться в тысячелетнюю эпоху. На самом деле, образование 21-го века требует постепенного изменения структуры учебного плана с учетом различных компетенций, которые студенты должны развивать в условиях обучения. Современное языковое образование, основанное на знаниях, типы навыков и компетенций, которые должны получить обучаемые, отличаются от тех, что использовались в прошлом. Коммуникативная компетентность является одним из наиболее важных аспектов в языковом образовании. Внедрение коммуникативного подхода в преподавание английского языка способствует тому, что обучаемые языковые навыки могут

использоваться за пределами своей страны на основе собственных потребностей, интересов и возможностей.

Ключевые слова: коммуникативная методология, коммуникация, изучение языка, функциональность, практические знания, коммуникативная компетентность, коммуникативный подход, социальный язык, изучение языка на основе задач, текстовое обучение.

COMMUNICATIVE APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Murtozayeva Nilufar Jumanazarovna

Bukhara State University

Comparative linguistics, linguistic translation faculty

2nd year student of Master's degree

E-mail: nilushka_9222@mail.ru

ABSTRACT

A communicative technique today is undoubtedly the most effective way to learn English. It appeared abroad around the 60s of the last century, and came to our country around the mid-90s. The communicative technique is focused on the possibility of communication. Of the four "whales" on which any language training (reading, writing, speaking and perception of speech by ear) rests, increased attention is paid to the last two. The communicative method is designed primarily to relieve fear of communication. Communication is manifested in the functionality of training. Functionality assumes that both words and grammatical forms are absorbed immediately in the activity, based on its implementation.

Keywords: *communicative methodology, communication, language learning, functionality, practical knowledge, communicative competence, communicative approach, social language, task-based language learning, text-based teaching.*

Introduction

Like any method of learning a foreign language, the communicative method has its drawbacks, but together with the methodologists of our school we managed to correct them, which contributed to improving the effectiveness of our classes, as well as increased the results of our students. The main disadvantage is that it is quite difficult for a beginner to learn a foreign language to delve into the difficult grammatical basics

presented immediately in a foreign language, which is why education in our school is gradually from simple to complex. In addition, the following disadvantages can be identified: 1. "Complete abandonment of the native language, which is mandatory for communicative teaching methods, can cause stress for untrained students." For this, the teachers of the Star Talk school gradually introduce their students into the language environment, at the first lessons explanations are made in their native language, as they get used to it, the teacher completely switches to a foreign language. As you know, the goal of teaching a foreign language is practical language proficiency, assimilation of the language system and the acquisition of language skills. However, experience shows that often after graduation, even the best students do not have the skills of spontaneous speech, their poor vocabulary and the same type of design of grammatical structures are felt. Specially conducted studies have shown that more than 90% of training sessions in a foreign language are mainly aimed at teaching the language system, and not at mastering it. The main subject and object of training under the traditional method is the teacher. He directs speech activities, gives comments and organizes the training process as a whole: [1; 15-16-page]). At the same time, teaching methods and techniques are not aimed at the formation and development of speech skills and skills of students. The traditional method of learning English is also called grammar-translation. It consists in a systematic study of grammatical material, phonetics, and forms translation and reading skills. Students make dialogues, memorize them, teach words on topics, retell texts, perform written grammatical exercises.

Methods

The main features of this approach are memorizing the material and being thorough. A feature of the traditional methodology is that in the process of work, students must master all types of speech activities in a given volume. Currently, the so-called communicative method of mastering the language is also widely used. A communicative approach to language learning (communicative approach) is not a new technique at all: it appeared abroad around the 60s of the last century, and came to our country around the mid-90s [1; 23-24-pp.]) and they cannot speak. Adherents of a

communicative approach took the path of combating this discrepancy. Since then, the communicative technique has changed significantly and has become widespread around the world. She originally envisioned group classes with a native speaker. From the very first lesson, the training was conducted in English. The approach later underwent some changes and is now used in both the group and individual sessions. Much has been said and written about its effectiveness. The results are achieved by minimizing the use of the native language of the student during classes. With this approach, it is very important to teach a person to think in a foreign language so that he perceives foreign speech without any associations with his native language. With this teaching method, the study of theoretical moments is minimized or absent at all, and the main attention is paid to live communication, that is, spoken language. Discussion of real life situations attracts students, arouses keen interest and a desire to share their ideas. The main place in communicative learning of a foreign language is occupied by game situations, working with a partner, tasks for finding errors that not only allow you to increase the lexical stock, but also teach you to think analytically. Many advocates of a communicative approach support the use of authentic materials in the class. These can be different language realities, such as magazines, advertisements and newspapers, or visual sources around which communication can be built (maps, graphs, tables, etc.). The main task of the communicative technique is to help the student get rid of the notorious language barrier. About 70% of the communication method class is devoted to conversational practice on various topics. And yet it would be a mistake to assume that communicative approach is exclusively English language conversations. The communicative approach is designed to develop oral and written speech, vocabulary, grammar, listening and reading skills. The teacher goes through three stages of training with the student: engagement (involvement), study (study) and activation (activation - use). At the engagement stage, the teacher involves the student in the learning process: initiates an exciting discussion, offers to discuss the picture, problem, film, etc. [1; 51-52-page]). At the stage of study, the student is explained the grammatical theme and the use of new words and expressions,

that is, they are working on expanding the vocabulary and mastering grammar. At the knowledge activation stage, the student performs various exercises to consolidate the new grammar and words. This may be a continuation of the discussion of the topic under study, but already using the knowledge gained.

Results and Discussion

Tadqiqotni tashkillashtirish: Sakrash bo'yicha ixtisoslashgan boshlang'ich guruhning ayol sportchilari, shuningdek musobaqalarda doimiy ravishda qatnashadigan sport otlari.


Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Umumiy gipotezani sinab ko'rish va qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun pedagogik tajriba o'tkazildi.

Nazorat va eksperimental guruhdagi ot sportchilarning tana o'lchamlarining mutlaq ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			farqlarning ishonchliligi.
	M	T	CY	M	III	CY	
	Yosh	23,47	4,17	11,78	23,76	5,65	
Tajriba	10,13	5,16	51,09	10,67	5,81	54,51	Ishonchsiz
Boyi	168,6	6,88	4,08	170,4	5,40	1,66	Ishonchsiz
Og'irligi	59,87	9,56	1,97	60,93	2,82	8,87	Ishonchsiz
Tana uzunligi	78,87	5,25	6,82	76,87	1,60	2,03	P <0,001
Qo'l uzunligi	71,70	6,55	9,14	74,37	2,01	2,71	P <0,001
Yelkaning uzunligi	30,30	3,05	10,04	30,80	1,18	3,82	Ishonchsiz
Bilak uzunligi	25,30	2,27	3,99	25,40	1,38	5,43	Ishonchsiz
Oyoq uzunligi	88,00	5,02	5,71	91,17	1,82	2,00	P <0,001
Son uzunligi	43,60	2,69	3,18	43,93	1,07	2,43	Ishonchsiz
Pastki oyoq uzunligi	39,37	2,37	2,02	41,00	1,77	4,32	P <0,001
ko'krak atrofi	93,57	5,05	3,39	92,50	6,93	7,49	Ishonchsiz

Tajriba guruhga qaraganda nazorat guruhida aniqroq bo'lgan individual antropometrik ko'rsatkichlarning juda keng doiradagi o'zgaruvchanligiga e'tibor qaratiladi. Tana vazni, qo'llarning uzunligi, yelkalari va ko'krak aylanasi bo'yicha eng katta qiymatga yetadi.

Boshqa ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi ahamiyatsiz, bu ularning barqarorligini ko'rsatadi.



Tajribaviy Nazorat

Tajriba va nazorat guruhlarining ot sportchilarida, tana uzunligi ko'rsatkichlari (1), tana korpusiniyong uzunligi (2), qo'l uzunligi (3), oyoq uzunligi

o'tkazilgan korrelyatsiya tahlili ot sportchilarining antropometrik ko'rsatkichlari va sport natijalari o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni aniqladi. Shunday qilib, tajriba guruhida sport natijasi va tana vazni ($r = 694$), tana uzunligi ($r = 600$), qo'l uzunligi ($r = 559$) o'rtasida yaqin aloqalar aniqlandi. Natija va sportchilarning yoshi ($r = 814$), ish staji ($r = 742$) o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni qayd etilgan.

XULOSALAR

Ot sporti sportchilari va ularning otlarini tekshirishning adabiy manbalarini va pedagogik eksperiment davomida olingan natijalarni o'rganish asosida, boshlang'ich ixtisoslashuv otlilarini tayyorlashni boshqarish, shu jumladan sport tanlovining turli bosqichlari "kordinatsiya" tizimining asosiy ko'rsatkichlarining nisbatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini tan olish kerak. Ushbu tizim, birinchi navbatda, ot o'lchovlarining antropometrik ko'rsatkichlari, yuqori asabiy faoliyat ko'rsatkichlari, chavandoz va otning fiziologik ma'lumotlari, shuningdek ularning natijaga ta'sir qilish darajasini o'z ichiga olishi kerak.

1. Muvofiqlashtirish" tizimini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi:
- antropometrik sport ko'rsatkichlariga ta'sir qildi (tana og'irligi, $r = 0,57$, tana uzunligi, $r = 0,56$, tana korpus uzunligi, $r = 0,54$, qo'l uzunligi, $r = 0,58$);

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Автократов Д.М. Экстерьер лошади. - М.: Сельхозгиз 1931. - 183 с.*
2. *Алексеев В.Г. Преодоление препятствий. - М.: изд. Физкультура и Спорт, 1955. - 17с.*
3. *Алексеев В.Г., Овчинников Н.Ф. Еще раз о недостатках в конном спорте // Теор. и практ. физ. культ. - 1956. - №3. - С. 185-188.*
4. *Амосов Н.М., Антомонов Ю.Г. Моделирование в биокибернетике // Моделирование в биологии и медицине. - Киев: Наукова думка, 1975. - С.26-38.*
5. *Андреева И.В. Об экстерьере спортивных лошадей // Коневодство и конный спорт. - 1970. - №12. - С.21*
6. *Андреева И.В. Взаимосвязь экстерьерных особенностей с работоспособностью спортивных лошадей // Совершенствование племенной работы и технологии в животноводстве. - М.: Московская Ветеринарная Академия, 1971. - Т.71. - С.70-74*

IKKI KARRALI INTEGRALNI MAPLE DASTURI YORDAMIDA HISOBLASH USULLARI

Aktamov Feruz Sanaqulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Algebra va matematik analiz kafedrası tayanch doktoranti

feruzaktamov28@gmail.com

Jo'rayev Firdavs Umed o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Matematika va informatika fakulteti 2-kurs talabasi

zuraevfirdavs1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Karrali integrallarni MAPLE matematik paketi yordamida yechish. MAPLE matematik paketi yordamida karrali integrallarni yechishning imkoniyatlari va qulayliklari. Karrali integrallarni MAPLE matematik yordamida yechishni ko'rgazmalilikligi va karrali integrallarni MAPLE matematik paketida yechishning odatdagi usullardan farqlari.

Kalit so'zlar: MAPLE, ikki karrali integrallar, yuza, hajim, soha, grafik.

ABSTRACT

Solving multiple integrals using the MAPLE mathematical package. Opportunities and convenience of solving multiple integrals using the MAPLE mathematical package. Visualization of solving multiple integrals using MAPLE math and differences from usual methods of solving multiple integrals in MAPLE math package.

Key words: MAPLE, double integrals, surface, volume, area, graph

KIRISH

Matematik analiz fanining muhim bo'limlaridan bittasi karrali integrallar hisoblanadi. Karrali integral tekislikning ma'lum sohasida uch o'lchovli yoki n o'lchovli fazoda berilgan funksiyalardan olingan integral. Bu yerda talabalarda shunday muamo yuzaga keladiki, qandaydir D sohada aniqlangan ikki o'zgaruvchili funksiyaning grafigini tassavur qilish va hosil bo'lgan jismni doskada ifodalash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda ayniqsa uch o'lchovli fazoda jismni tasvirlash uchun matematik paketlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda eng zamonaviy paketlardan biri MAPLE shu muamolarni hal qilishda muqobil yechim hisoblanadi. Dastlab biz ikki karrali integralga ta'rif beramiz va ikki karrali integralni MAPLE matematik paketi yordamida yechishning bir nechta usullarini keltirib, ularga doir bir nechta misollar yechimlarini ko'rsatamiz.

Ta'rif: Oxy tekislikning yopiq D sohasida $z = f(x, y)$ funksiya aniqlangan va uzluksiz bo'lsin. D sohani ixtiyoriy ravishda umumiy ichki nuqtalarga ega bo'lmagan va yuzalari ΔS_i ga teng bo'lgan n ta D_i ($i = \overline{1, n}$) elementar sohalarga bo'lamiz. Har bir D_i sohada ixtiyoriy $P(x_i; y_i)$ nuqtani tanlaymiz, $z = f(x, y)$ funksiyaning bu nuqtadagi qiymati $f(x_i, y_i)$ ni hisoblab, uni ΔS_i ga ko'paytiramiz va barcha bunday ko'paytmalarning yig'indisini tuzamiz:

$$I_n = \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta S_i$$

Bu yig'indiga $f(x, y)$ funksiyaning D sohadagi integral yig'indisi deyiladi.

D_i soha chegaraviy nuqtalari orasidagi masofalarning eng kattasiga shu yuzaning diametri deyiladi va d_i bilan belgilanadi, bunda $n \rightarrow \infty$ da $d_i \rightarrow 0$. Agar (1.1) integral yig'indining $\max d_i \rightarrow 0$ dagi chekli limiti D sohani bo'laklarga bo'lish usuliga va bu bo'laklarda $P(x_i; y_i)$ nuqtani tanlash usuliga bog'liq bo'lmagan holda

mavjud bo'lsa, bu limitga $f(x, y)$ funksiyadan D soha bo'yicha olingan ikki karrali integral deyiladi va $\iint_D f(x, y) dS$ bilan belgilanadi:

$$\iint_D f(x, y) dS = \lim_{\max d_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta S,$$

yoki,

$$\iint_D f(x, y) dx dy = \lim_{\max d_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(x_i, y_i) \Delta x_i \cdot y_i$$

bo'ladi.

1. Ikki karrali integralni **int()** buyrug'i yordamida hisoblash.

Bu buyruq quydagi tartibda yozilsa bizga ikki karrali integralni hisoblab beradi.

Int funksiyasi ichiga funksiya va uning o'zgarish oraliqlarini kiritamiz va uni yana shunga tenglab natijani olamiz faqat bunda integralni hisoblash jarayoni ko'rinmaydi. Buni ko'rish uchun "simplify" buyrug'idan foydalanamiz va natijalarni olamiz.

2. Ikki karrali integralni Student paketidagi **Doubleint()** funksiyasi yordamida hisoblash.

Doubleint() funksiyasi yordamida ikki karrali integralni hisoblash uchun with(student): Doubleint buyrug'i ichiga funksiya va o'zgaruvchilarning o'zgarish oralig'i kiritib natija olamiz.

3. Ikki karrali integralni **Student[MultivariateCalculus]** paketining **MultiInt()** funksiyasi yordamida hisoblash.

Student[MultivariateCalculus] paketidagi MultiInt() funksiyasi yordamida ikki karrali integral quydagicha hisoblanadi. MultiInt() funksiyasi ichiga ikki karrali integral ostidagi funksiya, o'zgaruvchilarning o'zgarish oralig'i va oxirida output=steps deb natijani olamiz.


4. Ikki karrali integralni **VectorCalculus** paketining **int()** funksiyasi yordamida hisoblash.

VectorCalculus paketining int() funksiyasi bilan hisoblashda with(VectorCalculus) va int buyrug'idan foydalanamiz. Int() funksiyasi ichiga ikki karrali integral ostidagi funksiyani va Region funksiya ichiga o'zgarish oraliqlarini kiritib natijani olamiz.

Endi shularga oid misollarni ko'rib chiqamiz.

1-misol: $\iint_D (xy - 4x^3y^3) dx dy$, $D: x=1, y=x^3, y=-\sqrt{x}$ hisoblang.

$> \text{plot3d}(x \cdot y - 4 \cdot x^3 \cdot y^3, x = 1 \dots 2, y = \frac{\pi}{2} \dots \pi, \text{axes} = \text{frame})$



Ikki karrali integralni int() buyrug'i yordamida hisoblash.

$>$

$$\text{Int}\left(\text{Int}\left((x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3)', y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right), x = 0 \dots 1\right) = \text{int}\left(\text{int}\left(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right), x = 0 \dots 1\right);$$

$$\int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3 y^3 + xy) dy dx = 0$$

$$\text{Int}\left((x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3), y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right) = \text{int}\left(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2\right);$$

$$\int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3 y^3 + xy) dy = -x^3 (x^8 - x^2) + \frac{1}{2} x (x^4 - x)$$

simplify(rhs(%));

$$-x^{11} + \frac{3}{2} x^5 - \frac{1}{2} x^2$$

$$\text{Int}(\%, x = 0 \dots 1) = \text{int}(\%, x = 0 \dots 1);$$

$$\int_0^1 \left(-x^{11} + \frac{3}{2} x^5 - \frac{1}{2} x^2\right) dx = 0$$

Ikki karrali integralni Student paketidagi **Doubleint()** funksiyasi yordamida hisoblash.

$$> \text{with(student)} : \text{Doubleint}\left((x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3), y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2, x = 0 \dots 1\right) : \% = \text{value}(\%);$$

$$\int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3 y^3 + xy) dy dx = 0$$

Ikki karrali integralni **Student[MultivariateCalculus]** paketining **MultiInt()** funksiyasi yordamida hisoblash.

with(Student[MultivariateCalculus]);

$$\text{MultiInt}\left(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, y = -x^{\frac{1}{2}} \dots x^2, x = 0 \dots 1, \text{output} = \text{steps}\right);$$

[**∫**], *ApproximateInt, ApproximateIntTutor, AreParallel, AreSkew, CenterOfMass, ChangeOfVariables, Contains, CrossSection, CrossSectionTutor, Del, DirectionalDerivative, DirectionalDerivativeTutor, Distance, Equal, FunctionAverage, GetDimension, GetDirection, GetIntersection, GetNormal, GetPlot, GetPoint, GetRepresentation, Gradient, GradientTutor, Intersects, Jacobian, LagrangeMultipliers, Line, MultiInt, Nabla, Plane, Revert, SecondDerivativeTest, SurfaceArea, TaylorApproximation, TaylorApproximationTutor*]

$$\begin{aligned}
& \int_0^1 \int_{-\sqrt{x}}^{x^2} (-4x^3 y^3 + xy) dy dx \\
&= \int_0^1 \left(\left(-y^4 x^3 + \frac{1}{2} y^2 x \right) \Big|_{y=-\sqrt{x} \cdot x^2} \right) dx \\
&= \int_0^1 \left(-x^3 (x^8 - x^2) + \frac{x(x^4 - x)}{2} \right) dx \\
&= \left(-\frac{1}{12} x^{12} + \frac{1}{4} x^6 - \frac{1}{6} x^3 \right) \Big|_{x=0..1}
\end{aligned}$$

Ikki karrali integralni **VectorCalculus** paketining **int()** funksiyasi yordamida hisoblash.

$$with(VectorCalculus) : int(x \cdot y - 4x^3 \cdot y^3, [x, y] = Region(0..1, -x^{\frac{1}{2}} \cdot x^2));$$

Demak, yuqoridagi 4 ta usulda bizga berilgan

$$\iint_D (xy - 4x^3 y^3) dx dy, \quad D: x=1, y=x^3, y=-\sqrt{x}$$


ning qiymati nolga teng bo'ldi. Shuni endi biz bilgan matematik usul bilan yechib ko'ramiz.

$$I = \iint_D (xy - 4x^3 y^3) dx dy, \quad D: x=1, y=x^3, y=-\sqrt{x}$$

Birinchi navbatda bizga berilgan D so

hani chizib olamiz.

$$> plot\left(\left[x^3, -x^{\frac{1}{2}}\right], x=0..1\right); \quad y=x^3$$




Demak, D soha quydagicha ekan. $D = \{(x, y) : 0 \leq x \leq 1, -\sqrt{x} \leq y \leq x^3\}$

Shundan foydalanib, quydagi ikki karrali integralni tuzamiz va uni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
 I &= \iint_D (xy - 4x^3y^3) dx dy = \int_0^1 dx \int_{-\sqrt{x}}^{x^3} (xy - 4x^3y^3) dy = \int_0^1 \left(x \cdot \frac{y^2}{2} - x^3y^3 \right)_{-\sqrt{x}}^{x^3} dx = \\
 &= \int_0^1 \left(\frac{x^7}{2} - x^{15} - \frac{x^2}{2} + x^5 \right) dx = \left(\frac{x^8}{16} - \frac{x^{16}}{16} - \frac{x^3}{6} + \frac{x^6}{6} \right)_0^1 = 0
 \end{aligned}$$

2-misol: $\iint_D y \cos(xy) dx dy$, $y = \frac{\pi}{2}$, $y = \pi$, $x = 1$, $x = 2$ hisoblang.

> *smartplot3d(y*cos(x*y))*



Ikki karrali integralni **int()** buyrug'i yordamida hisoblash.

$$\text{Int}\left('y \cdot \cos(x \cdot y)', y = \frac{\pi}{2} .. \pi\right) = \text{int}\left(y \cdot \cos(x \cdot y), y = \frac{\pi}{2} .. \pi\right);$$

$$\int_{\frac{1}{2}\pi}^{\pi} y \cos(xy) dy = -\frac{1}{2} \frac{\pi \sin\left(\frac{1}{2}x\pi\right)x - 2\pi \sin(x\pi)x + 2\cos\left(\frac{1}{2}x\pi\right) - 2\cos(x\pi)}{x^2}$$

simplify(rhs(%));

$$-\frac{1}{2} \frac{\pi \sin\left(\frac{1}{2}x\pi\right)x - 2\pi \sin(x\pi)x + 2\cos\left(\frac{1}{2}x\pi\right) - 2\cos(x\pi)}{x^2}$$

Int(%, x = 1 .. 2) = int(%, x = 1 .. 2);

$$\int_1^2 \left(-\frac{1}{2} \frac{\pi \sin\left(\frac{1}{2}x\pi\right)x - 2\pi \sin(x\pi)x + 2\cos\left(\frac{1}{2}x\pi\right) - 2\cos(x\pi)}{x^2} \right) dx = -\cos\left(\frac{1}{2}\pi\right) + \frac{3}{2}\cos(\pi) - \frac{1}{2}\cos(2\pi)$$

Ikki karrali integralni **Student[MultivariateCalculus]** paketining **MultiInt()** funksiyasi yordamida hisoblash.

with(Student[MultivariateCalculus]);

MultiInt($y \cdot \cos(x \cdot y)$, $y = \frac{\pi}{2} .. \pi$, $x = 1 .. 2$, *output = steps*);

[*'*; *ApproximateInt*, *ApproximateIntTutor*, *AreParallel*, *AreSkew*, *CenterOfMass*, *ChangeOfVariables*, *Contains*, *CrossSection*, *CrossSectionTutor*, *Del*, *DirectionalDerivative*, *DirectionalDerivativeTutor*, *Distance*, *Equal*, *FunctionAverage*, *GetDimension*, *GetDirection*, *GetIntersection*, *GetNormal*, *GetPlot*, *GetPoint*, *GetRepresentation*, *Gradient*, *GradientTutor*, *Intersects*, *Jacobian*, *LagrangeMultipliers*, *Line*, *MultiInt*, *Nabla*, *Plane*, *Revert*, *SecondDerivativeTest*, *SurfaceArea*, *TaylorApproximation*, *TaylorApproximationTutor*]

$$\int_1^2 \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} y \cos(xy) \, dy \, dx$$

$$= \int_1^2 \left(\frac{\cos(xy) + y \sin(xy) x}{x^2} \Big|_{y = \frac{\pi}{2}}^{\pi} \right) dx$$

$$= \int_1^2 \frac{\pi \sin\left(\frac{x\pi}{2}\right) x - 2\pi \sin(x\pi) x + 2\cos\left(\frac{x\pi}{2}\right) - 2\cos(x\pi)}{2x^2} dx$$

$$= 1 \left(-\frac{\pi \operatorname{Si}\left(\frac{x\pi}{2}\right)}{2} + \pi \operatorname{Si}(x\pi) - \frac{\pi \left(-\frac{2\cos\left(\frac{x\pi}{2}\right)}{x\pi} - \operatorname{Si}\left(\frac{x\pi}{2}\right) \right)}{2} + \pi \left(-\frac{\cos(x\pi)}{x\pi} - \operatorname{Si}(x\pi) - \frac{1}{x\pi} \right) + \frac{1}{x} \right) \Big|_{x=1}^2$$

$$-\cos\left(\frac{1}{2}\pi\right) + \frac{3}{2}\cos(\pi) - \frac{1}{2}\cos(2\pi)$$

Ikki karrali integralni Student paketidagi **Doubleint()** funksiyasi yordamida hisoblash.

with(student) : Doubleint($(y \cdot \cos(x \cdot y))$, $y = \frac{\pi}{2} .. \pi$, $x = 1 .. 2$) : % = *value*(%);

$$\int_1^2 \int_{\frac{1}{2}\pi}^{\pi} y \cos(xy) \, dy \, dx = -\cos\left(\frac{1}{2}\pi\right) + \frac{3}{2}\cos(\pi) - \frac{1}{2}\cos(2\pi)$$

Ikki karrali integralni **VectorCalculus** paketining **int()** funksiyasi yordamida hisoblash.

with(VectorCalculus) : int $\left(y \cdot \cos(x \cdot y), [x, y] = \text{Region}\left(1..2, \frac{\pi}{2}..pi\right)\right);$

$$-\cos\left(\frac{1}{2}\pi\right) + \frac{3}{2}\cos(\pi) - \frac{1}{2}\cos(2\pi)$$

Endi bu misolda ham berilgan D sohani chizamiz.

$> \text{plot}\left(\left[\frac{3.14}{2}, 3.14\right], x = 1..2\right);$

Demak, bizning D soha quydagicha bo'ladi.

$$D = \left\{ (x, y) : 1 \leq x \leq 2, \frac{\pi}{2} \leq y \leq \pi \right\}$$

bo'ladi. Shundan foydalanib quydagicha integral tuzamiz.

$$\begin{aligned} \iint_D (y \cos(xy)) dx dy &= \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} dy \int_1^2 (y \cos(xy)) dx = \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} y \frac{1}{y} \sin(xy) \Big|_1^2 = \int_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} (\sin 2x - \sin x) dx = \\ &= \left(-\frac{1}{2} \cos 2x + \cos x \right) \Big|_{\frac{\pi}{2}}^{\pi} = -\frac{1}{2} \cos 2\pi + \cos \pi + \frac{1}{2} \cos \pi - \cos \frac{\pi}{2} = \\ &= -\frac{1}{2} \cos 2\pi + \frac{3}{2} \cos \pi - \cos \frac{\pi}{2} \end{aligned}$$

XULOSA

Demak, xulosa qilsak yuqorida keltirilgan ikki karrali integralni hisoblash bo'ycha bir nechta usullarni ko'rib o'tdik. Bu usullar talabalarga ikki karrali integral ostidagi funktsiyani grafigini tassavur qilish imkoniyatini taqdim etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.Azlarov, H.Mansurov *Matematik analiz Toshkent "O'qituvchi" 1994*
2. A.Gaziyev, I.Isroilov, M.Yaxshiboyev *Matematik analizdan misol masalalar Toshkent-2021.*

3. Aktamov F.S., Soatmurotov H.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikaning trigonometriya bo'limini o'qitishning zamonaviy usullari. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 10, Oct. (2022), Tom 10, № 10, 822-828 b.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bazi bir elementar funksiyalarning hosilasini olishning innovatsion uslublari. Aktamov Feruz 2019/12 *Fizika, matematika va informatika (ilmiy-uslubiy jurnal)* 2019, № 6, 31-38 b.

5. Ba'zi geometric masalalarni tengsizliklar yordamida yechish. Aktamov Feruz 2020/3 *Fizika, matematika va informatika (ilmiy-uslubiy jurnal)* 2020, № 3, 67-71 b.

6. Маҳкамов, Э. М., Қулжонов, Н. Ж., Актамов, Ф. С., Раупова, М. (2021). Таълимда Финландия ўқитиш тизимининг қўлланилишининг тахлилий тамоиллари математика фани мисолида. *Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3)*, 119-124.

7. Aktamov F.S., Jo'rayev F.U. Aniq integrallarni taqribiy hisoblashning ba'zi usullari. *Journal of integrated education and research. January 2023 2(1)* ISSN: 2181-3558

TA'LIM VA TARBIYADA NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI

Зарипова Динара Рустамовна

ЎР ИИБ 2 сонли академик лицей ўқитувчиси

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, o'zbek xalqining ta'lim va tarbiyada ulkan merosga ega ekanligi, ta'lim va tarbiyada, nazariya va amaliyot birligini uyg'unlikda olib borish qanchalar zarur bo'lishi bilan birga, sharq allomalarining bu boradagi aytgan fikrlari haqida ma'lumotlar bayon qilindi.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, nazariya va amaloyot birligi, ta'lim to'g'risida qonun, muhit, Farobiy talimoti*

АННОТАЦИЯ

В этой статье была изложена информация о том, что узбекский народ имеет огромное наследие в образовании и воспитании, насколько необходимо гармонично вести единство теории и практики в образовании и воспитании, а также мнения восточных ученых по этому вопросу.

***Ключевые слова:** образование, воспитание, единство теории и практики, закон Об образовании, среда, учение Фараби*

Ta'lim - insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatlarni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq me'yorlarini va amaliy malakalarini o'rgatishdir deya ta'kidlanadi. Ma'lumki uzoq va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir inson

dunyoga kelar ekan, u o'sib, ulg'ayib kamol topadi. Uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori, dastavval, o'z oilasida shakllanadi. Demak, oila tarbiya maskanidir. Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish har bir otaonaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir. Shuningdek, ta'lim va tarbiya sohasida e'tiborni kuchaytirish va bu bilan bir qatorda, nazariya va amaliyot birligini yoshlar va jamiyatga keng miqyosida tadbiq qilish uchun hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qonun va qarorlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini Ta'lim to'grisidagi qonunining 1-bob 3-moddasida *“Ta'lim – ta'im oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek uning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”* ekanligi ta'kidlab otilgan.

Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobida “Inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim va tarbiyadan boshlanadi”, deyiladi. Juda o'rinli fikr. Ta'lim-tarbiyaning ham, siyosiy-mafkuraviy va xalqaro munosabatlarning ham ochqichi til ekanligi ayni haqiqat. SHunday ekan, nafaqat ta'lim balki tarbiya ham har doim o'zining dolzarbligicha qolaveradi. Uning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish asnosida ko'proq hayotga tatbiq etish har qachongidan ham zarur. Amaliyot bu nazariya natijasini, samarasini belgilovchi mezon ekanligini unutmaslik kerak.

Tarbiya – ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur va u ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi – odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida muayyan darajada iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi. Har bir ota-ona tarbiyaning o'ziga xos nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota-onadan bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Shuni aytish joizki, bolaga berilyotgan ta'lim va tarbiyada uni o'sib kelayotgan muhiti ta'sir ko'rsatadi. Bolani har qanch bilimli bo'lishini istaga ota-ona, farzandini o'qib ta'lim olishi uchun muhit yaratib berishi

maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, har bir bola artofdagilarni ko‘rishi orqali, ularning xatti-harakatlaridan o‘rganadi.

Prezidentimiz Murojaatnomada “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”ligini ta’kidladi. Shunday ekan, ta’limda tarbiya qanchalar muhim ekanligini, har qanday bilimli inson tarbiyasiz hechkim ekanligini uqtirib o‘tish joiz. Farobiy ta’limotiga ko‘ra: *“Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.”* deya ta’kidlagan. Hamda, Farobiy quyida ta’lim-tarbiya berish usullarini ikkiga bo‘ladi:

Birinchi usul: Qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul: Majbur etish yo‘lidir. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emasdir. Farobiy shunday deydi: *“Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bolsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bolsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”*. Farobiyning ushbu g‘oyalari hozirgi paytda bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchi, murabbiylar uchun eng yaxshi yo‘l va ko‘rsatma bo‘ladi. Ushbu jumladan

anglanadiki, bizning o'zbek xalqi naqadar ma'vaviy bilimlarga boy, balki yuksak ma'naviyatli shaxslar o'tganligi bilan faxrlansa arziydi.

Nazariya va amaliyot birligi uni doim chambarchas bir-biriga bog'lab o'rgatish qanchalar samarali ekanligini Jomiy o'zining "Silsilat-uz zahab" (Oltin tizmalar) dostonidagi "Sevimli aziz farzandimga nasihat" bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Shunday ekan har jabhada ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan bilimlarni o'rganib ularni hozirgi kunda tadbiq qilishimiz, har qanday yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga yechim boladi deya ta'kitlashim mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. *Gulmurod Niyozov, Malohat Ahmedova "Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari" Toshkent – "Noshir" - 2011*
2. *Samarqand shahar 3-DMTT tarbiyasini Po'latova Manzura "Oila, mahalla va jamiyat hamkorligining tarbiyadagi o'rni" maqola.*
3. <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1427>
4. <http://notiq.uz/archives/4110>

МЕТОДИКА ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО РАЗМИНОЧНОГО МАССАЖА В ВЕЛОСПОРТЕ

Хамраев Сардор Собиржон угли

Узбекский государственный университет физической
культуры и спорта, г.Чирчик, Узбекистан.

sardorshoxalixan@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы и определены преимущества в методике предварительного разминочного массажа в велоспорте. В частности, научно обоснована возможность повышения решить такие важные задачи, как общая подготовка спортсмена к предстоящей физической нагрузке и специальная подготовка.

Ключевые слова: сила, выносливость, траектория движения, велосипед, гонщик, судья, гонка, участие, результат, чемпион, время, улучшение.

ANNOTATSIYA

Мақолада велосипед спортидаги олдиндан иситиш массажининг афзалликлари тахлил қилиниб ва аниқланади. Хусусан умумий таергарлик даврида махсус ва жимоний таёргарлик нисбатини ошириш каби муҳим вазифаларни ошириш имконияти илмий асосланган.

Kalit soʻzlar: kuch, chidamlilik, traektoriya, velosiped, poygachi, hakam, poyga, ishtirok etish, natija, chempion, vaqt, takomillashtirish.

Keywords: strength, endurance, trajectory, bike, rider, judge, race, participation, result, champion, time, improvement.

В последние годы в велосипедном спорте, как и во всех видах спортивной деятельности, наблюдается большой поток информации. Это связано с необходимостью поиска тех резервов, которые могут обеспечить рост спортивных результатов.

Цель данной статьи: познакомить тренеров, студентов познакомить с методикой предварительного разминочного массажа в велоспорте.

Данный вид массажа применяется непосредственно перед нагрузкой. Целью является оказание помощи спортсмену перед тренировкой, и увеличение функциональных возможности организма перед выступлением на соревнованиях.

Предварительный спортивный массаж состоит из нескольких подвидов, каждый из которых выполняет определенные задачи и имеет свою методику:

1. Разминочный массаж.
2. Массаж в предстартовых состояниях (тонизирующий и успокаивающий)
3. Согревающий массаж.

Его применение необходимо перед выступлением на соревновании или перед тренировкой. После проведения разминочного массажа увеличивается работоспособность к моменту выполнения упражнения, старта и т. д. Сеанс такого массажа благоприятствует перераспределению крови в организме и улучшению кровоснабжения работающих мышц, а также увеличению притока крови по венам к сердцу.

Во время проведения разминочного массажа нужно применять приемы, которые наиболее эффективно влияют на кровообращение. К этим приемам относятся двойное кольцевое разминание и двойной гриф. Их необходимо применять в комплексе с выжиманием, валянием и потряхиванием. Экспериментально установлено, что число сердечных сокращений увеличивается под действием разминания.

Кроме того, сеанс разминочного массажа помогает подготовить дыхательную систему к нагрузке. Он влияет на частоту и глубину дыхания и

играет не последнюю роль в регулировании и согласованности функций дыхания, кровообращения и других систем и органов перед предстоящей нагрузкой.

Разминочный массаж необходим и для облегчения процессов терморегуляции. Если перед физической нагрузкой не проводился сеанс массажа, теплопродукция превышает теплоотдачу и происходит повышение температуры тела.

Благодаря разминочному массажу деятельность физиологических процессов теплоотдачи облегчается, т. к. во время массирования происходит расширение сосудов кожи и усиление работы потовых желез.

Разминочный массаж оказывает большое влияние на скорость двигательной реакции. Увеличение скорости двигательной реакции происходит после 6-минутного разминочного массажа, что очень важно для таких видов спорта, как фехтование, бокс и др.

С помощью разминочного массажа можно решить такие важные задачи, как общая подготовка спортсмена к предстоящей физической нагрузке и специальная подготовка.

Разминочный массаж, продолжительность которого в зависимости от вида спорта составляет 15-25 минут, имеет следующий набор приемов:

1. Выжимание.
2. Растирание (в основном на суставах). Применяются следующие виды растирания:
 - щипцеобразное;
 - подушечками пальцев обеих рук;
 - основанием ладони и буграми больших пальцев прямолинейно и кругообразно;
 - фалангами пальцев, согнутых в кулак.
3. Разминание.

Разминание должно занимать 80% времени, отпущенного на весь сеанс массажа.

В целом, умение применять полученные знания по разминочному массажу для велосипедистов позволит создать условия для обеспечения качественного тренировочного процесса, целенаправленной подготовки спортсменов велосипедистов.

ЛИТЕРАТУРА

1. *Анатомия человека: Учебник /М.Ф.Иваницкий, Б.А.Никитюка, А.А.Гладышев, Ф.В.Судзиловский. - М.: Тера-Спорт, 2003 - С. 624.*
2. *Верхошанский Ю. В. Горизонты научной теории и методологии спортивной тренировки // Теория и практика физической культуры. - 1998. - № 7. - С. 43.*
3. *Волков Н. И. Биоэнергетика напряженной мышечной деятельности человека и способы повышения работоспособности спортсменов: автореф. дис..., д-ра биол. наук - М, 1990. - 48 с.*
4. *Курамышин Ю.Ф. Методы обучения двигательным действиям и развитие физических качеств //Теория и технология применения: Учеб.пособие. - СПб., 1998. - С. 217.*
5. *Озолин Н. Г. Настольная книга тренера: наука побеждать - М.: Аст: Астрель, 2003.- 861 с.*
6. *Радченко А. С. Адаптивные реакции у спортсменов при мышечной работе аэробного характера // Физиология человека. - 2001. - Т.27, № 2. - С. 122 -130.*

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI HARBIY- VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY JIHALTLARI

H. Safoyev

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy jihatlari belgilab berilishi bilan bir qatorda ularda Vatanimizning kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug'ini olam uzra yoyish, shuhratiga shuhrat qo'shish har bir talaba-yoshning burchi ekanligi yoritib o'tilgan

Shuningdek, maqolada Ta'lim jarayonining shaxsga yo'nalganligi, o'quv mashg'ulotlarining sifatli tashkil etilishi, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodikasi, texnologiyasi zamonaviy talab va ehtiyojlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, totuvlik, kuch-qudrat, ta'lim-tarbiy, talaba-yosh, xalq og'zaki, pedagogik, innovatsion, harbiy-vatanparvarlik.*

Hozirgi kunda yurtimizda erkin va obod hayot, inson erki va manfaatlarini ustuvor biluvchi xalqparvar davlatni barpo etish, elimiz turmushini xech kimdan kam bo'lmaydigan darajaga ko'tarish, jahon maydonida munosib o'rin egallash yo'lida barcha sohalarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarimiz va qo'lga kiritayotgan yutuqlarimiz natijasida mamlakatimizning qudrati va iqtisodiy salohiyati tobora ortib, aholimizning hayot darajasi va sifati yuksalib bormoqda.

Bugun biz erishgan yutuqlarimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan tanolinayotgani, Vatanimizning jahon mamlakatlari orasida munosib obro' e'tibor va mavqega egaligi to'g'risida faxr bilan gapirishga haqlimiz. Biz erishayotgan va

Vatanimizning obro'sini yanada ko'tarayotgan bunday yutuqlarda mehnatkash va olijanob xalqimizning mardligi va matonati, fidokorona mehnati, shijoati, bularning zamirida esa, eng avvalo, xalqimizning chinakam vatanparvarlik xislatlari yaqqol aks etib turibdi.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har-tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan e'tibor qancha kuchli bo'lsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatining faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga "muammo" deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'limning ijtimoiy va shaxsiy yo'naltirilgan qadriyati sifatida qaralishi ta'lim-tarbiya jarayoniga, o'quv rejalari, dasturlari, darsliklari, metodik adabiyotlarda puxta gavdalantirilishi zarur. Bu ishni amalga oshirishda xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodi muhim manba hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida bosqichma-bosqich tarbiyalash – bugungi kunda pedagogika fanining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun turli variativ dasturlar, moslashuvchan shakllar, samarali metodlar, qulay vositalar, pedagogik mos sharoitlar va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Aynan ijodiy-pedagogik, innovatsion yondashish ta'limning asosiy qadriyati – harbiy-vatanparvarlikni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi keskin o'zgarishlar, yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi, jamiyatning yangi qadriyatlarini shakllanishi milliy ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini qaytadan sinchiklab ko'zdan kechirish hamda unga tanqidiy baho berishni taqozo qilmoqda.

Ta'lim jarayonining shaxsga yo'nalganligi, o'quv mashg'ulotlarining sifatli tashkil etilishi, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodikasi, texnologiyasi zamonaviy talab va ehtiyojlarga mosligi ta'minlanmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirishda yosh avlodning yetuk mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishi, ularning chinakam vatanparvarlik xislatlarini o'ziga singdirishi, shu jumladan, Vatan himoyasiga doim tayyor turishi, harbiy soxa bo'yicha mutaxassislar esa o'z kasblarini puxta egallagan, jasur, mard, bilimdon, fidoyi bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Shu nuqtayi nazardan so'nggi yillarda talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish talab qilinmoqda. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari asrida vatanparvarlik ruhini yoshlar ongiga singdirish dolzarb muammoga aylangan va asosiy vazifaligicha qolmoqda.

Bu yo'nalishdagi ishlarni aniq maqsadli va tizimli tashkil qilish maqsadida vazifalarni va ijrochilarni belgilash, ijrosini ta'minlash, tegishli nazorat olib borish masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari qabul qilingan va ular ijrosi ta'minlanib kelmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash va hududiy yaxlitligini saqlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustaxkamlash katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan yurtimiz kelajagini ta'minlashda yoshlarni vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati katta.

Hozirgi notinch zamonda har bir shaxsning vatanparvarlik sifatleri yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa dunyoning turli mintakalarida ruy berayotgan qaltis vaziyatlar tufayli Vatan mudofaasini mustaxkamlash, uning himoyasi uchun tayyor turish vazifalarini keltirib chiqaradi.

Shu sabablarga ko'ra hozirda yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi Vatanimiz xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lib, bunday tarbiyani zamonaviy

talablar darajasida amalga oshirish talab etiladi. Buning uchun yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini ushbu yo‘nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish masalasi davr talabidir.

Shunday ekan, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta‘limning ijtimoiy-shaxsiy qadriyati sifatida qaraladi, uni amalga oshirishda xalq pedagogikasi, talaba shaxsiga e‘tibor va davlat ta‘lim siyosatining boshqa metodologik ko‘rsatmalari muhim o‘rin egallaydi. Pedagogika fani ta‘limni rivojlantirishda faol bo‘lishi va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doirasida muhim muammolarni hal etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida PF-4947-son 07.02.2017*

2. *Pedagogika nazariyasi va tarixi. Iqism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. “Iqtisod-moliya”, 2007.-380 b.*

3. *Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi nashriyoti. 1993.*

4. *Olimov Temir. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Progressive Academic Publishing, UK. 2019. 98-101 pages. (13.00.00.№3).*

NUTQIY KOMPETENSIYALARNING O'RGANILISH METODOLOGIYASI

Roziqova Ra'no Rustamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) II bosqich magistranti

ranorozikova1@email.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda nutqiy kompetensiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va fanga kirib kelishi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Mamlakatimizda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida izlanishlar olib borayotgan olimlar haqida ham kiritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, kompetensiya, globallashuv, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar, nutqiy rivojlanish.*

Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni qayta isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni talab etmoqda. XXI asr dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalda joriy etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – ta'lim oluvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim turidir.

Mazkur masala yuzasidan Yevropa Kengashi 1996-yilda “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy mavzudagi Simpozium tashkil etib, unda

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki tayanch kompetensiyalar belgilangan Yevropa Parlamenti amaliy tajriba vatakliflar asosida 2006-yil 18-dekabrda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar Uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan sakkizta tayanch kompetensiyalarni tavsiya etgan. Bular quyidagicha nomlanadi:

1. Ona tilida muloqot qila olish;
2. Chet tilida muloqot qila olish;
3. Matematik savodxonlik, fan va texnikaga oid kompetensiyalar;
4. Information texnologiyalardan foydalanish;
5. O'rganish uchun o'qish va mustaqil bilim olish kompetensiyasi;
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
7. Tashabbuskorlik va tadbirkorlik kompetensiyasi;
8. Turli madaniyatlar, qadriyatlarni tushunish va o'z madaniyatiga ega bo'lish kompetensiyasi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan to'rt xil turdagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya etgan:

1. Fikrlash yo'llari yoki ko'p qirrali fikrlashga oid kompetensiyalar (kretiv, innovatsion, tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal eta olish, qaror qabul qila olish, o'rganish uchun doimiy o'qish, metabolish (метопознание)).
2. Samarali ishlash yo'llariga oid kompetensiyalar. Jamoada ishlay olish, hamkorlikda, birgalikda ishlay olish, sohasi bo'yicha samarali muloqot qila olish kabi kompetensiyalardan iborat.
3. Mehnat qilishning samarali metodlari va vositalaridan foydalana olish kompetensiyasi. Axborotlardan foydalana olish savodxonligi. AKT sohasidagi savodxonlik.
4. Dunyoda, jamiyatda yashay olish kompetensiyasi. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, o'z kasbi doirasida yuqori cho'qqilarga erishish, shaxs sifatida ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan oltita tayanch kompetensiyalarni tavsiya qilgan:

1. Soha bo'yicha mavqega erishishga oid kompetensiyalar;
2. Mustaqil bilim olish kompetensiyasi;
3. Muammolarni hal qilish kompetensiyasi;
4. Kreativ fikrlash, ijodkorlik kompetensiyasi;
5. Kommunikativ kompetensiya;
6. Fuqarolik kompetensiyasi.

Dunyo rivojlangan davlatlari orasida O'zbekiston birinchilardan bo'lib barcha uchun muhim bo'lgan mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga joriy etib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, akademik litsey va kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid umumiy kompetensiyalar belgilanadi.

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. Faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. Umummadaniy kompetensiya;
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyasi kabilar.

Fanga oid kompetensiyalar esa quyidagilar:

1. Nutqiy kompetensiya;
2. Lingvistik kompetensiya.

Biz ta'lim tizimimizda barcha kompetensiyalarni o'zida jamlagan shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilib olganmiz. Mazkur maqsadni hayotda o'z isbotini topishda

O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dastur”i O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qoidalariga muvofiq ravishda, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutular asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirigandir. Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili bolalar nutqiy kompetensiyalarining turli xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. 1979-yildan boshlab to bugungi kungacha bolalarga ona tili va o‘zga (rus, ingliz) o‘qitish muammosini o‘zbek olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti sanaladi. (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqalar). Barcha tadqiqotlar bolalar nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining Pedagog, ota-ona va boshqalar) bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, chunki, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni shakllantirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik - o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, ammo u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Bolalarda nutq kompetensiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishini tashkil etish kalitidir. V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Y.M. Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari Y.I.Tixeyeva, Y.A.Flerina, A.M.Lyushina, L.A.Penyevskaya va boshqalar bolalarning og‘zaki nutqi va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogic va monologik nutqning

o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

Shunisi diqqatliki, M.Sh. Rasulova, N.U. Bikboyeva, A.G. Grigoryans, R.M. Qodirova, F.M. Qodirova, G.X.Jumasheva, S. G‘oziyeva kabi bir guruh olimlar tomonidan bazaviy umumta’lim dasturlaridan samarali foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta’minlash imkonini beruvchi bolalar o‘quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Nazariy va amliy tadqiqotlarda bunday o‘quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dastur”i.: 1997.*
2. *Ishmuhammedov R., Yo‘ldosheva M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2017.*
3. *Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi (darslik). – T. : “Barkamol fayz media”, 2018, -432 bet.*
4. *Barakayevich Q.S., Baxtiyorova A.S. (2021). Xalqaro dastur talablari asosida innovatsion ta’lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice, scientific-methodical journal, 1(02), 132-137*

WORD FORMATION OF PART OF SPEECH NOUN AFFIXATION AND SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Elmirzayeva Maftuna Do'smurod qizi

Teacher at the International Innovation University
of Philology and teaching language department

elmirzayevamaftuna1211@gmail.com

ANNOTATION

In this given article we analyzed the linguistic features of word formation. There are some similarities and differences between word formation system of Uzbek and English languages. In the article we tried to solve different problems of using affixes and to compare the resemblance and different sides typologically in formation of noun in English and Uzbek languages using the method of affixation. study some ways of word formation and to clarify the theme we presented a lot examples.

Key words: *compound words, classification of compounds, word formation, main ways, conversion, affixation, suffix, prefix, infix, derivative words, components, word stems, abbreviation, acronyms and initialisms.*

It is clear that word-building is one of the main ways of enriching vocabulary. In contrast to word formation, word stems are mainly used as a building material in word addition. As a result of word formation and word attachment, new compound words are formed. They are formed by adding affixes to a whole compound word. Affixation According to Brussmann [2006], affixation is the process of word formation in which stem is expanded by the addition of an affix[p.25]. So, affixation is a morphological process whereby a bound morpheme (an affix) is attached to the base. Moreover, affix is added to the base form or stem of a word in order to modify its meaning or create a

new meaning. Richards and Schmidt [2002] say that affixes are bound to form that can be added: 1) To the beginning of a word (prefix), usually inserted before the word. 2) To end of a word (suffix), usually inserted after the word. 3) Within a word (infix), usually inserted into a word[p.17]. In other words, affixation is divided according to the place they can add to the base. Prefix (affixes that precede the root), example un– as in unhealthy suffix (affixes that follow the root), example ly– as in happily and infix (affixes that are inserted within the root). In contrast, root is the morpheme in which the rest of the word is built. A base is any structure to which affix may be added. While stem is any base to which grammatical affix may be added.

They are formed by adding affixes to a whole compound word. (blue-eyed, dress-maker). But, nevertheless, the process of making such words is done, first of all, by adding cores. (blue + eye = blue-eyed, dress + make = dress-maker). So here the core becomes the main word-forming element of the compound word. There are four **main ways** of word-building in modern English: affixation, composition, conversion abbreviation [8]

Affixation (xushxabar, saylgoh) ,**word-composition** (oqqush, temiryo‘l), **conversion** (kasal, g‘olib), **abbreviation** (O‘zMU) .

Affixation or derivation.

Affixation is one of the most productive ways of word-building throughout the history of English. It consists in adding an affix to the stem of a definite part of speech[2].

Suffixes(-age,-ance,-ant,-ee,-ence,--er/or, -ery,-full,-ion) can change parts of speech as the following:

adjective-to-noun: shortage (‘етишмовчилик, камлик’)

-ness (happy → happiness),

-ness (sad → sadness)

adjective-to-verb: -ize (modern → modernize)

noun-to-adjective: -al (recreation → recreational)

noun-to-verb: -fy (glory → glorify)

